

“O‘quv dasturlarimiz islohga muhtoj”



3-bet

O‘qituvchi nimani o‘ylaydi?



Samarqand shahriga borib bir nechta bank filialiga bosh suqib chiqdim. Buni qarangi, qishda sovuq, yozda issiq sinfxonalarda ishlab, kamiga ularni o‘zimiz boshdan-oyoq jihozlab yurgan ekanmiz-da. Ana sharoit-u, mana ishxona. Har bir bank xonasining poli va devorlarida aksingiz ko‘rinadi. Xonalarda sovitgich, har bir xodim stolida internet tarmog‘iga ulangan so‘nggi rusumdagi kompyuter. Bu sharoitdan og‘zim ochilib, ko‘zimni yumdim-u, maktabning biologiya xonasida 4 donagina mikroskop va yana 4 tagina proyektor bo‘lishini orzu qildim (mayli kompyuterni o‘zimiz olarmiz, axir maoshimiz oshgan-ku?!).

4-bet

“Beruniydan kam ish qilmabsiz!..”

Leningradlik mashhur arabshunos olim Abbos Boqiyevich Xolidov otamning ishlariga baho berib: “Siz Beruniydan kam ish qilmabsiz!”, deb yozgandi.

8-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 6-iyul, shanba № 52 (9221)

Xalq ziyolilari gazetasi



“Qariyb 60 ming nafar
o‘qituvchi oliy ma‘lumotli
emas”

4-bet

“Direktorga mudir ham chora ko‘rolmaydi!

Chunki u viloyat XTB boshlig‘ining ayoli”

Bu — bir tomonning fikri, ya‘ni shikoyat qilayotganlarning.
Mutasaddilarning fikrini esa, afsuski, bilolmadik.



“Jiyanim Mahliyo So‘fiyeva tumandagi 9-maktabda rus tili fani o‘qituvchisi bo‘lib ishlardi, — deyiladi shikoyat xatida. — 2017-yilning avgust oyida u maktab direktori X.Turdimatova tomonidan haqoratlanib, og‘zaki buyruq bilan nohaq ishdan bo‘shatildi. Qo‘liga hech qanday ogohlantirish xati berilmadi. 3 oylik homilador Mahliyo So‘fiyeva kamsitilgani, sog‘lig‘i yomonlashgani sababli shifokorga murojaat qiladi. Natijada bir hafta davomida uyda davolanadi. Shundan so‘ng viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasiga murojaat qildik. Mutaxassis O.Rahmonov masalani o‘rganib, M.So‘fiyeva nohaq ishdan bo‘shatilganini aniqladi. Mutasaddilar va maktab jamoasi bilan yig‘ilish o‘tkazib, jiyanimni ishga tiklab ketdi. Bu vaqtda maktab direktori malaka oshirishda bo‘lgani uchun kasaba uyushmasi a‘zolari yig‘ilishida ishtirok etmadi”.

7-bet



OTM reytingi

qanday mezonlar asosida
aniqlanishi endi ma‘lum

Shu yilning 7-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta‘lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 467-sonli qarori bilan “Oliy ta‘lim muassasalari reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risida nizom” tasdiqlandi. Unga ko‘ra, har yili OTMlar reytingi quyidagicha aniqlanadi:

1-bosqich. Reyting aniqlanayotgan yilning 20-dekabriga qadar jarayonga taalluqli ma‘lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida tegishli jadvallar ishlab chiqiladi va oliy ta‘lim muassasalariga hamda tegishli vazirlik, idoralarga yetkaziladi.

2-bosqich. Tegishli vazirlik va idoralar hamda OTM tomonidan har yili 1-fevralga qadar reytingni aniqlashga oid ma‘lumotlar asoslovchi hujjatlari bilan birga Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga taqdim etiladi.

5-bet

Soliq islohotlari natijalari tahlil qilinib, yangi vazifalar belgilandi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 5-iyul kuni birinchi yarim yillikda davlat budgetiga tushumlar natijadorligini tahlil qilish va yangi vazifalarni belgilash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Qariyb bir yil muqaddam, 2018-yil 29-iyunda "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida" Prezident farmoni qabul qilingan edi.

Mazkur konsepsiya amalda tatbiq etilishi natijasida joriy yilning birinchi yarmida davlat budgetiga 39 trillion 118 milliard so'm yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 barobar ko'p mablag' tushdi. Prognoz 8 foiz ortig'i bilan bajarilgani hisobiga, mahalliy hokimliklar ixtiyorida qo'shimcha 2,8 trillion so'm mablag' qoldi. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i va ijtimoiy to'lovlar stavkasi keskin kamaytirilgani natijasida 570 mingdan ziyod yashirin ish o'rinlari legallashtirildi.

Lekin joylarda yangi soliq islohotlarini tizimli joriy etish, soliq tushumlarini ko'paytirish va undirish borasida ayrim kamchiliklar ham uchrab turibdi.

Masalan, bo'sh turgan obyektlar va yer maydonlari negizida yangi korxonalar tashkil etib, soliqqa tortish bazasini kengaytirish borasida sustkashlikka yo'l qo'yilgan. Ayrim hududlarda prognoz yirik korxonalar va avvaldan soliq to'lash amaliyoti hisobiga ta'minlangan.

Davlatimiz rahbari bu kabi holatlar oqibatida milliardlab mablag'larni budgetga tushirish imkoniyati yo'qotilganini ta'kidlab, tegishli vazirlik va hududlar rahbarlariga kamchiliklarni bartaraf etish, belgilangan vazifalar ijrosini qat'iy nazorat qilish bo'yicha topshiriqlar berdi.

2020-yil 1-yanvargacha soliq tekshiruvlariga moratoriy e'lon qilingani qayd etilar ekan, Davlat soliq qo'mitasiga xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda, yil oxiriga qadar, soliq to'lamahtimolini baholash imkoniyatiga ega elektron dastur yaratish vazifasi qo'yildi.

Joriy yil 27-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Bu yangi soliq islohotlarining o'ta muhim ikkinchi bosqichidir.

Farmonga muvofiq, ayni paytda qo'llanilayotgan qo'shimcha qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar 2019-yil 1-oktabrdan boshlab bekor qilinadi. Bundan asosiy maqsad — ichki bozorda barcha tadbirkorlar uchun bir xil sha-

roit yaratish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish.

Yig'ilishda bu o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini aholi va tadbirkorlarga chuqur tushuntirish bo'yicha Bosh vazir rahbarligida tuzilgan Ishchi guruh shtabi va uning hududiy tuzilmalari ishini yanada jonlantirish vazifasi qo'yildi. Qo'shimcha qiymat solig'ini to'lashga o'tadigan tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklari bilan manzilli ish tashkil qilib, ularning buxgalteriyasini yuritishga amaliy yordam berish zarurligi ta'kidlandi.

Prezident tadbirkorlardan soliq majburiyatini to'liq bajarishni talab qilish bilan birga, ularning manfaatlarini himoyalash ham kerakligini qayd etdi.

Masalan, hozir tadbirkorlar xomashyoni qo'shimcha qiymat solig'ini to'lagan holda sotib oladi. Undan tayyor mahsulot ishlab chiqarib, sotganidan keyingina xomashyo narxidagi qo'shimcha qiymat solig'ini kamaytiradi. Bunga tadbirkor o'z aylanma mablag'laridan vaqtincha foydalana olmayapti.

Shu bois davlatimiz rahbari mutasaddilarga qo'shimcha qiymat solig'ini biryo'la hisobga olish va uni soliq to'lovchiga qaytarish mexanizmini joriy etish bo'yicha topshiriq berdi.

Videoselektorda energiya resurslari tariflarini optimallashtirish masalasi ham ko'rib chiqildi.

Oxirgi ikki yilda aholi, ijtimoiy va ishlab chiqarish obyektlarini uzluksiz elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan ta'minlash borasida qator ishlar amalga oshirildi. Ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada yaxshilash maqsadida tegishli tarmoqlarni modernizatsiya qilish, energiya tejamon texnologiyalarni qo'llash va xarajatlarni optimallashtirish talab etilmoqda. Bularsiz tarmoqlarning moliyaviy ahvolini yaxshilash va sohaga faol investitsiyalarni jalb qilish imkonsiz.

Shu bois mutaxassislar va jamoatchilik vakillari fikrlarini inobatga olib, aholi uchun tariflarni keskin oshirmasdan, inflyatsiya darajasiga yaqin miqdorda o'zgartirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tarif islohotlari xalqqa yengil bo'lishi uchun eng kam ish haqini ham oshirish rejalashtirilgan.

Yig'ilishda tariflarni tartibga solish bo'yicha taklif etilayotgan islohotlarni aholiga to'liq yetkazish zarurligi ta'kidlandi. Soliq islohotlarini targ'ib qilish bo'yicha Respublika ishchi guruhi a'zolari, shuningdek, mahalliy kengashlar deputatlari, iqtisodiyot va kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari mutasaddilariga joylarga borib, har bir mahallada aholiga tariflar o'zgarishining mazmun-mohiyatini tushuntirish bo'yicha vazifalar topshirildi.

O'ZA

Yosh ijodkorlarning Zomin seminari yakunlandi

Jizzax viloyati Zomin tumanidagi so'lim O'rikli soy oromgohida mamlakatimiz yosh ijodkorlarining uch kun davom etgan seminari nihoyasiga yetdi. O'rikli soydagi Navoiy kon-metallurgiya kombinatining yangi qurilgan sihatgohi amfiteatrida tadbirning tantanali yopilish marosimi bo'lib o'tdi.

Ushbu nufuzli anjuman navbatdagi adabiy-ma'rifiy tadbir bo'lib qolmasdan, davlatimiz tomonidan yoshlarga, yosh ijodkorlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning, Prezidentimiz besh muhim tashabbusini hayotga tatbiq etishning yana bir amaldagi ifodasi sifatida katta tayyorgarlik va tashkilotchilik bilan o'tkazildi. Tadbirning yakuniy yig'inda ustoz ijodkorlar, ishtirokchilar tomonidan anjuman faqat yosh ijodkorlarni yetishtirishdagina emas, adabiyotimiz taraqqiyotida muhim o'rin tutishi e'tirof etildi.

Uch kun davomida anjuman doirasidagi uchrashuvlar, mahorat darslari, mushoiralar, adabiy baharlar, Zominning xushmanzara tabiati qo'yniga sayohatlar, boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarda yoshlar katta qiziqish va faollik bilan qatnashdi. Seminar ishtirokchilari uchun she'riyat, nasr, dramaturgiya, badiiy

publitsistika, bolalar adabiyoti yo'nalishlarida yurtimizning tanikli shoirlari, yozuvchilari, adabiyotshunoslari yoshlarga saboq berishdi.

Seminar doirasida bo'lib o'tgan qizg'in mushoiralar yoshlarni yanada bir-biriga yaqinlashtirdi. Ularning bir-biri bilan ijodiy fikr almashishiga, ijod namunalari o'rtada baham ko'rishga ishtiroqini oshirdi.

— Iste'dod doimiy izlanishda, o'rganishda kamol topadi, — deydi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Xorazm viloyati bo'limi rahbari Gavhar Ibodullayeva. — Ana shu nuqtayi nazardan Zomin anjumani eng yaxshi muloqot maydoniga aylandi. Biz ham ushbu anjumaning dastlabki yig'inlarida qatnashganmiz. O'sha paytdagi ishtirokchilar orasidan bugun tanikli ijodkorlar yetishib chiqqaniga ham guvoh bo'ldik. Bugungi ishtirokchilarning orasidan ham kelajakning



buyuk ijodkorlari yetishib chiqishiga ishonchim komil.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid ushbu anjumanni yuksak darajada tashkil etishda yaqindan yordam bergan Jizzax viloyati hamda Zomin tumani hokimliklariga samimiy minnatdorlik bildirdi.

— O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzuridagi "Ijod" fondi mablag'i hisobidan to'plamim nashr etildi, — deydi Namangan shahridagi Is'hoq-

xon Ibrat nomli ijod maktabi o'quvchisi Dilshoda Hakimova. — Yosh ijodkor uchun bu juda katta quvvatlov, g'amxo'rlik. Bu yil Zomin seminarida ishtirok etishim men uchun yana bir yutuq bo'ldi. O'tkazilgan har bir mashg'ulot bizlarni adabiyotning sirli olami bilan tanishtirdi. She'rlarini o'qib, havas qilib yurgan katta shoirlar bilan uchrashdik. Ularning maslahatlaridan bahramand bo'ldik. Mushoiralar, do'stona

baharlar ham bizning dunyoqarashimizni kengaytirib, fikrimizni boyitdi. Hammasi uchun senga rahmat, Zomin anjumani!

Yakuniy yig'inda barcha sho'ba yig'ilishlari, mahorat darslari ishtirokchilariga sertifikatlar, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Jizzax viloyat hokimligi, homiy tashkilotlarning, uyushma "Do'stlar klubi" ning esdalik sovg'alari topshirildi.

Toshqul BEKNAZAROV,
O'ZA muxbiri

Mushtariy muhokamasi

“O‘quv dasturlarimiz islohga muhtoj”

“Ma‘rifat” gazetasi shu yil 29-may sonida “Nomukammal darslik va eski dasturlardan qachon voz kechamiz?” sarlavhali davra suhbatini chop etilgan edi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professor-o‘qituvchilari ishtirokida kechgan suhbat chog‘ida bugungi kunda ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan qator omillar sanalgan, maktab o‘quv dasturining zamon talabiga mos emasligi, fanlarni optimallashtirish va darsliklardagi mavzularni kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borish zarurligi ta‘kidlangan, o‘quvchi fiziologik, psixologik jihatdan kundalik darslarda charchamasligi, zerikmasligi uchun qanday choralar ko‘rilishi professor-o‘qituvchilar tomonidan muhokama qilingan edi. Bu mavzudagi muhokamalar gazetamizning “Telegram” ijtimoiy tarmog‘idagi “Ma‘rifat” mushtariylar” guruhiga ko‘chdi.



texnologiyalari asosan bir xil yoshdagi o‘quvchi (talabalar) uchun tatbiq etiladi. Maktab ta‘limi uchun sanoqli texnologiyalar bor. Mutaxassislar jarayonda buni ham inobatga olib, masalaga nafaqat ilmiy, balki amaliy yondashishsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Fikrimcha, jahon ta‘lim standartiga mos ravishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va o‘quv dasturi (2017) hali eskirib ulguradi. Aksincha, ta‘limni to‘liq qamrab o‘lgani yo‘q. Bosqichma-bosqich darsliklar yangilanishi bilan yangi o‘quv dasturi amalda bo‘lmoqda. Meni bir savol qiynaydi: nega katta doiradagi pedagogika fanlari doktorlari tahri ostida tasdiqlangan o‘quv dasturini yana isloh qilishga ehtiyoj sezilyapti? Mayli, bu biz uchun imkoniyatdir. Aslida ona tili va adabiyot darsligi misolida olsak, 6-sinf ona tili darsligi murakkab boshlangani bilan bolani toliqtiradi. 7-sinf adabiyot darsligidagi mavzular hajmi ajratilgan dars soatiga nisbatan ko‘p. Bu esa o‘quvchiga ham, o‘qituvchiga ham og‘irlik qiladi. Tabiiyki, mavzularni o‘zlashtirishda ham biroz qiyinchilik tug‘diradi. Xatolar o‘quvchini chalg‘itib, aldab qo‘ymoqda. Chunki bola faqat darslikka ishonadi. Shunday o‘quv dasturi bo‘lsaki, ko‘p yillar xizmat qilsa. Bir vaqtlar to‘g‘ri deb berilgan xulosa vaqt o‘tib, noto‘g‘ri ekanini targ‘ib etmaylik.

Muzaffar:

— Bugungi demokratik jamiyat va globalashuv jarayoni

huquq fanini o‘rganishga bo‘lgan talabni oshirmoqda. O‘quvchilarga huquqiy savodxonlik darslarini ular tushunadigan tarzda chuqur o‘rgatish lozim. Oddiy misol, o‘z haq-huquqlarini, mavjud qonunchilikni yaxshi bilmagan qanchadan-qancha yoshlarimiz tashqi migratsiya jarayonida aldanib qolyapti. Yoki bilmay jinoyat sodir etyapti. Kundalik turmushimizda ham o‘z haq-huquqlarini bilmay, sarson yurgan, hayotda o‘z o‘mini topa olmayotgan odamlar qancha. Qonunchilik tizimini, qonunlarni o‘rganish jamiyatning har bir a‘zosi juda ham zarur. Shuning uchun davlat va huquq asoslari fanini o‘qitish va darslikka talabni oshirish kerak. Birinchidan, dars soatlarini ko‘paytirish, ikkinchidan, mavzularni sodda va tushunarli qilib shakllantirish va nihoyat OTMga kirish uchun huquq fanidan test joriy qilish lozim.

Shohrux Abdiraimov:

— Davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturini, shu dastur asosida chop etilgan darsliklarni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan, deya olmayman. Mutaxassislarimiz, avvalo, kompetensiya tushunchasi mohiyatini yaxshi anglab yetishlari kerak. Ona tili darsliklari va o‘quv dasturi shu nuqtay nazardan qaraganda anchagina bahsli. Menimcha, 2010-yili amalda bo‘lgan o‘quv dasturi bundan mukammalroq edi. Bilim, ko‘nikma va malaka aniq edi. Ammo u ham zamon talabi darajasida emasdi.

Zilola MADATOVA tayyorladi.

Dilfuza Suvonova:

— Haqiqatan ham, hozirgi kunda o‘quv dasturlarimiz isloh qilinishga muhtoj. Maktabda o‘quvchilarga hayot uchun kerakli fanlarni o‘qitish zarur. Ona tili fani o‘qituvchisi sifatida ushbu fanidagi murakkab ilmiy mavzularni darslikdan olib tashlash tarafdoriman. Adabiyot darsliklarida shoir va yozuvchilarning hayot yo‘li haqida ozroq ma‘lumot berilib, asosan asarlari o‘qitilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan tashqari, asarlarning tayyor tahlili ham shartmas. Sababi, bolalar bu tahlillarni o‘qib, qayta gapirib berishga odatlangan. Buning natijasida ular fikrini erkin ifodalay olmaydi. Misol uchun, biror asar yuzasidan insho yozdirsak, kitobdagi tahlildan ko‘chirib qo‘ya qoladi. Bu esa mustaqil xulosa chiqarishga to‘sqinlik qiladi. Davra suhbatida davomida sinfdagi o‘quvchi sonining me‘yordan ortiqligi ham aytilgan. Bu xalq ta‘limidagi eng og‘irliq nuqta. Ayniqsa, ona tili darslari ikki guruhga bo‘lib o‘qitilmas ekan, imloviy savodxonlik oqsayveradi. Savodi haminqadar o‘quvchi kitobni tez o‘qiy olmaydi, boshqa fanlarni ham o‘zlashtirishga qiynaladi.

Sardor Ro‘ziyev:

— Aslida ona tili ta‘limining asosiy maqsadi ijodiy fikrlaydigan, o‘z fikrini mustaqil og‘zaki va yozma bayon eta oladigan o‘quvchini tarbiyalashdan iborat. Amaldagi darsliklar bu maqsadni anglab yetmagan

holda bolaning shaxsiy hayotida u qadar muhim bo‘lmagan ma‘lumotlar bilan to‘ldirilgan. Darsliklardagi mavjud kamchiliklar, xatoliklar haqida ko‘p gapiriladi, tahlil qilinadi, ammo ming taassufki, yangi darsliklar yildan yilga yanada ko‘p xato bilan chop etilmoqda. O‘quvchi uchun engillik sezilmaydi. Faqat yili va nashri o‘zgaradi, xolos. Hatto kitoblarning dizayni ham o‘n yil oldingi ko‘rinishda. Bir darslikdan ikkinchi darslikka ko‘chib o‘tgan ikkilamchi fikr, qoida u yoqda tursin, bir kitobning o‘zidayoq oldingi betda aytilgan ta‘rifni keyingi betdagi nazariy ma‘lumot inkor etadi. “Bilib oling!” ruknida berilgan qoida bilan unga asos sifatida keltirilgan misollar bir-biriga zid. Yangi darsliklar malakali, tajribali maktab o‘qituvchilari bilan hamkorlikda tayyorlanishi kerak. Olim faqat nazariyani yaratadi, amaliyot esa o‘qituvchi zimmasidagi burch.

Dildor Nurmuhammedova:

— Ko‘tarilgan muammo kecha yoki bugun paydo bo‘lgan emas. Bu bir necha besh yildan beri (darsliklar besh yilda almashinishi hisobga olsak) davom etib keladi. Psixologlarning fikricha, o‘quvchining dunyoqarashi, fikrlashi sinflar kesimida o‘zib boradi. Birinchi navbatda, mana shu o‘zlashuv darajasi o‘zgaruvchan yoshlarni o‘qitish metodikasi mukammal ishlab chiqilsa, maktablarga metodik yordam sifatida berilsa, yaxshi bo‘lardi. Shuningdek, pedagogik ta‘lim

Mutasaddilardan javob keldi

O‘qituvchi uchta hujjat to‘ldiradi

Gazetamizning 2019-yil 9-fevral sonida Zulayho Qurbonovaning “Yana konspekt yozyapimiz!” sarlavhali maqolasi chop etilgandi. Unda o‘qituvchilardan turli qo‘shimcha hujjatlar talab etilayotgani, haftada ikki soatlik to‘garak mashg‘ulotlari uchun ham konspekt yozish so‘ralayotgani ta‘kidlangan.

Maqolada to‘garaklar ko‘proq amaliy tarzda o‘tilishi va ma‘lum reja yoki konspektga asoslanmagani bayon qilingan.

Mazkur maqola yuzasidan tahririyatimizga Xalq ta‘limi vazirining birinchi o‘rinbosari A.Umarov imzosi bilan quyidagi javob xati keldi:

“O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Xalq ta‘limi vazirligi tomonidan 2018-yil 27-iyulda tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining pedagogik muta-

xassisliklari bo‘yicha namunaviy yillik ish rejasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi qo‘shma qaror (Adliya vazirligida 2018-yil 20-avgustda 3058-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan)ning qabul qilinishi munosabati bilan o‘qituvchilar tomonidan yuritiladigan hujjatlar soni 7 tadan 3 taga kamaytirilib, bugungi kunda sinf jurnali, yillik taqvim-mavzuviy reja va kundalik dars ishlanmalari yuritib kelinmoqda.

Shu bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 5-bandiga muvofiq, umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchilari tomonidan dars va to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishdan boshqa hisobot hamda ma‘lumotlar talab qilish taqiqlangan”.

Yana konspekt yozyapimiz!

Ma‘rifat

2019-yil 9-fevral sonida Zulayho Qurbonovaning “Yana konspekt yozyapimiz!” sarlavhali maqolasi chop etilgandi. Unda o‘qituvchilardan turli qo‘shimcha hujjatlar talab etilayotgani, haftada ikki soatlik to‘garak mashg‘ulotlari uchun ham konspekt yozish so‘ralayotgani ta‘kidlangan.

Brifing

"Qariyb 60 ming nafar o'qituvchi oliy ma'lumotli emas"



2019-yil 29-aprel kuni Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni tasdiqlangan edi.

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida farmon ijrosiga bag'ishlangan brifing o'tkazildi.

Unda Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov konsepsiyaning mazmun-mohiyati, xalq ta'limi vazirligining maqsad va vazifalari, bajarilgan ishlar haqida ma'lumot berdi. Jumladan, 9 ta ustuvor yo'nalish va 48 ta maxsus mezon bo'yicha bajarilishi ko'zda tutilgan Konsepsiyani o'qituvchining jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirmay turib amalga oshirish mushkul ekanini ta'kidladi. Vazirlik bu borada bir yildan ziyod vaqt ichida sezilarli natijalarga erishgani, ayniqsa, o'qituvchilarning majburiy mehnatdan ozod etilgani, maoshi oshirilgani, qog'ozbozlik kamaytirilgani

haqida to'xtalib, hali oldinda turgan muammolar ko'pligini aytib o'tdi.

Shuningdek, brifingda o'quvchilarni PISA, ya'ni xalqaro miqyosda baholash dasturi bo'yicha tayyorlash, o'quv dasturlarini shunga muvofiqlashtirish va mazkur reyting bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishish, tizimni malakali kadrlar bilan to'ldirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, maktablarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish kabi katta o'zgarishlarga erishilishi ta'kidlandi.

Brifingda ta'kidlanishicha, kelgusida maktablar bir smenada faoliyat olib borib, o'quvchilar darsdan so'ng besh tashabbus asosida o'ziga qiziqarli bo'lgan fan to'garaklari bo'yicha qo'shimcha bilim olishi va boshqa to'garaklarda qatnashishiga sharoit yaratiladi.

Zilola MADATOVA,
"Ma'rifat" muxbiri
Burhon RIZOQULOV
olgan suratlar.

Attestatsiya, akkreditatsiya, nostrifikatsiya...

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida "O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va istiqboldagi rejalar" mavzusida matbuot anjumani o'tkazildi.

Anjumanda Inspeksiya tomonidan bajarilgan ishlar, kelgusidagi rejalar haqida ma'lumot berildi. Jumladan, pedagog kadrlar attestatsiyasi, nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash, o'quvchilar savdonxlonligini baholashning xalqaro PISA dasturi, ta'lim muassasalarini attestatsiya va akkreditatsiyalash, maktablar reytingini aniqlash, OTMlarda ta'lim tizimini yaxshilash va ularning reytingini belgilash, xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash kabi masalalarda sezilarli ishlar olib borilgani ta'kidlandi.

—2018-2019-o'quv yilida 1687 ta MTM davlat attestatsiyasidan o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, sentabr-noyabr oylarida 269 ta MTMning 183 tasi attestatsiyadan o'tdi, 66 tasi esa shartli ravishda o'tkazildi, — deydi Inspeksiya axborot xizmati rahbari Feruza Madrahimova. — Vazirlar Mahkamasining "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish

sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq respublika bo'yicha nodavlat ta'lim muassasalaridan 4440 ta hujjat kelib tushgan bo'lib, ekspertiza natijalariga ko'ra, 1499 ta yangi litsenziya berilgan va qayta rasmiylashtirilgan. Inspeksiya tashkil etilgandan buyon 3980 ta umumiy o'rta ta'lim muassasasi attestatsiyadan o'tkazilib, ularning 3729 tasi (93,7 foiz) akkreditatsiyalandi. 2019-yil mart oyida pedagog kadrlar attestatsiya jarayonining test sinovlarida oliy, birinchi toifalarga 23118 nafar talabgor ishtirok etdi. Ularning 11249 nafari (50 foizi) ijobiy natija qayd etgan.

Maktablar reytingini aniqlashda shaffoflikni ta'minlash maqsadida 57 ta ishchi guruhi tuzilib, unda 200 nafar mutaxassis ish olib bordi.

71 ta OTM faoliyati o'rganilib, kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash bo'yicha amaliy yordam ko'rsatildi. 26 ta OTM attestatsiyadan o'tkazildi. Ins-

peksiya tashkil etilgandan buyon 7 ta OTM akkreditatsiyalandi. 12 ta OTM shartli ravishda o'tkazilgan bo'lsa, 1 OTM o'tolmadi.

Bugungi kunda inspeksiya tomonidan amaldagi oliy o'quv yurti ta'lim muassasalari reytingini aniqlash metodikasini takomillashtirish maqsadida jahondagi yetakchi reyting agentliklari metodologiyasini o'rganib chiqish borasida olib borilayotgan ishlar haqida ham ma'lumot berildi. Jumladan, QS, ARWU va THE kabi nufuzli tashkilotlarning reyting tuzish metodologiyalari chuqur tahlil qilinib, ular asosida 18 ta indikator iborat takomillashtirilgan reyting tuzilmasi yaratilgani ta'kidlandi.

Yig'ilishda maktablarda o'quvchilar bilimni aniqlash maqsadida o'tkazilgan tekshiruvlar natijasi ham tahlil qilindi. Unga ko'ra, maktablarda ta'lim sifatini qoniqarsiz ekanini, ayniqsa, poytaxtimizdagi eng nufuzli hisoblangan maktablardagi ahvol ham maqtanarli emasligi afsus bilan qayd etildi.

Matbuot anjumani Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi mutaxassislari jurnalistlarni qiziqitirgan savollarga javob berdi.

X.ABDURAHMONOV

O'qituvchi nimanin o'g'laydi?



✓ O'quvchilik davrimizda har kuni fan kabinetlarining pollarini navbati bilan artib, sinfxonamizni tozalab ketadik. Hozir bolalarni navbatchilikka qoldirsak, ota-onasi "Uyda qilmagan ishini maktabda qiladimi?", deb yugurib keladi. O'zi o'qiydigan maktab sinfxonasini tozalash bolalarga hech bir zarar yetkazmaydi. Aksincha mehnat qilishni, birovning mehnatini qadrlashni o'rganadi.

Matluba NAVRO'ZOVA

✓ O'qituvchining vazifasi ta'lim berish, degan mohiyatni tushunib yetganimizda allaqachon sifatli ta'lim bosqichiga ko'tarilar edik.

Lobar YOQUBOVA

✓ O'quvchining tarbiyasiga sinf rahbari ham javobgar. Bugun biz — sinf rahbarlari tarbiyani yaxshi berolmasak ertangi kunning tushunmagan ota-onalari ko'payishiga hissa qo'shgan bo'lamiz. Bugun o'zimiz o'qitgan sobiq o'quvchilarning farzandlariga sinf rahbarlik qilyapman. Hozir bu o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida maqtansa arzigulik yutuqlar bor. Buni ularning ota-onasini ham to'g'ri o'qitganim samarasi deb bilaman.

Farida AXBORALIYEVA

✓ O'qituvchi notiq bo'lishi kerak. Mavzuni sodda va aniq qilib yetkazib berolmasak dars maqsadiga erishishimiz mushkul. Mutaxassislik fanining bilimdoni, notiq, xattot va biroz aktyor bo'lish o'quvchi bilan til topishishning eng samarali usulidir.

MUZAFFAR

✓ Maoshimiz oshdi, majburiy mehnatdan himoya qilinaymiz, qog'ozbozlik kamaytirilyapti, endi shunday hurmat-ehтиromga loyiq natija ko'rsatishimiz kerak. Nomiga maktabga kelib-ketish, har kuni bir xil dars o'tish, konspektning faqat sanasini o'zgartirish bilan halol ishladi, deyolmaymiz.


Nilufar ARSLONOVA

✓ Samarqand shahriga borib bir nechta bank filialiga bosh suqib chiqdim. Buni qarangi, qishda sovuq, yozda issiq sinfxonalarda ishlab, kami-ga ularni o'zimiz boshdan-oyoq jihozlab yurgan ekanimiz-da. Ana sharoit-u, mana ishxona. Har bir bank xonasining poli va devorlarida aksingiz ko'rinadi. Xonalarda sovitgich, har bir xodim stolda internet tarmog'iga ulangan so'nggi rusumdagi kompyuter. Bu sharoitdan og'zim ochilib, ko'zimni yumdim-u, maktabning biologiya xonasida 4 donagina mikroskop va yana 4 tagina proyektor bo'lishini orzu qildim. (Mayli kompyuterini o'zimiz olarmiz, axir maoshimiz oshgan-ku?!).

Barno SHARIPOVA

OTM reytingi

qanday mezonlar asosida aniqlanishi endi ma'lum



(Davomi. Boshi 1-betda.)

3-bosqich. 1-aprelga qadar reytingni aniqlashga oid ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlash maqsadida tahlil qilinadi (o'rganib chiqiladi).

4-bosqich. 10-aprelga qadar o'rganilgan ma'lumotlar tanishib chiqish va tasdiqlash uchun oliy ta'lim muassasalariga yuboriladi.

5-bosqich. 1-mayga qadar OTM rektorlari tomonidan tasdiqlangan reytingni aniqlashga oid ma'lumotlar Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga taqdim etiladi.

6-bosqich. Reytingni aniqlash jarayonida, har yili may-iyun oylarida:

birinchidan, professor-o'qituvchilarning xorijiy til va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilim darajasini aniqlash maqsadida test sinovlari o'tkaziladi;

ikkinchidan, talabalarining mutaxassislik fanlariga oid bilim darajasini aniqlash maqsadida nazorat ishlari (test sinovlari) va OTMdagi ta'lim sifatini o'rganish yuzasidan so'rovnoma o'tkaziladi.

7-bosqich. Har yili 20-iyulga qadar Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat muvohabatlari vazirligi bilan birgalikda OTMlar bitiruvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida ish beruvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazadi.

8-bosqich. 20—30-iyulda reytingni aniqlashga oid to'plangan ma'lumotlar, o'tkazilgan so'rovnoma va nazorat ishlari natijalari asosida OTMlarning reyting ballari hisoblanadi.

9-bosqich. Har yili 1-avgustga qadar hisoblangan reyting ballari asosida oliy ta'lim muassasalarining reytingi tuziladi.

10-bosqich. Reyting natijalari keyingi o'quv yili boshlanishidan kechiktirilmay O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi va ommaviy axborot vositalarida keng yoritiladi.

Quyida reyting indikatorlari va ular uchun belgilangan ballar miqdori bilan batafsil tanishishingiz mumkin:

Oliy ta'lim muassasalarining reytingini aniqlash MEZONLARI

T/r	Reyting indikatorlari	Ball
JAMI:		100
I. Professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyati		40
1.	Dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi oliy ta'lim muassasalarida fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) va fan doktori, fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olgan professor-o'qituvchilar ulushi (asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilarning umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)	3
2.	Reytingni aniqlash yilida dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlari (ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, seminar-treninglar) o'tkazgan professor-o'qituvchilar ulushi (asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilarning umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)	2
Professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati (asosiy shtatdagi bo'yicha foizda), shu jumladan:		3
3.	a) fan doktori, fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega (shuningdek, ilmiy darajaga ega bo'lmay professor ilmiy unvonini olgan yoki unga tenglashtirilgan) professor-o'qituvchilar ulushi	2
	b) fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega (shuningdek, ilmiy darajaga ega bo'lmay dotsent ilmiy unvonini olgan yoki unga tenglashtirilgan) professor-o'qituvchilar ulushi	1
4.	Professor-o'qituvchilar tomonidan himoya qilingan doktorlik (PhD va DSc) dissertatsiyalari soni	6
5.	Xalqaro ko'rsatkichlarga ko'ra oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari nashrlariga iqtiboslar ("Web of Science", "Scopus" va "Google Scholar" bazalari bo'yicha, so'nggi 5 yilda)	9
6.	Reytingni aniqlash yilida xalqaro ilmiy jurnallarda va mahalliy ilmiy nashrlarda ("Web of Science", "Scopus" bazasiga va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan jurnallarda) chop etilgan maqolalar (bir nafar professor-o'qituvchi hisobiga), shu jumladan:	5
	a) xalqaro jurnallardagi ilmiy maqolalar	3
	b) respublika ilmiy jurnallaridagi ilmiy maqolalar	2
7.	Oliy ta'lim muassasasida ilmiy-tadqiqot faoliyati va amaliyotga ilmiy-tadqiqot natijalarini taqdim etish asosida olingan mablag'lar hajmi yoki boshqa nomdodiy ko'rsatkichlar (ijtimoiy samaradorlik) (bir nafar professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan), shu jumladan:	4
	a) xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari grantlari va xorijiy ilmiy fondlar buyurtmalari hisobiga olingan mablag'lar (bir nafar professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan)	2
	b) sohalar buyurtmalari asosida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot (ilmiy-ijodiy) faoliyatidan olingan moliyaviy mablag'lar (bir nafar professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan)	1
	d) davlat grantlari asosida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqotlardan olingan mablag'lar (bir nafar professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan)	1
8.	Professor-o'qituvchilarning bilim darajasi, shu jumladan:	4
	a) xorijiy tillar bo'yicha	2
	b) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha	2
Reytingni aniqlanayotgan yilda bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligi, shu jumladan:		4
9.	a) chop etilgan monografiyalari soni	2
	b) ixtiro, foydali model, sanoat namunalar va seleksiya yutuqlari uchun olingan patentlar (tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan hujjatlar asosida)	1
	d) axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid dasturlar va elektron ma'lumotlar bazalari uchun olingan guvohnomalar, mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan turli materiallar	1
II. O'quv-uslubiy ishlar va o'qitish sifati		30
10.	Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berish sifati darajasi va ijtimoiy-ma'naviy muhit (talabalar o'rtasida o'tkaziladigan so'rovnoma natijalari asosida), shu jumladan:	7
	a) ta'lim olish uchun yaratilgan sharoitlar	2
	b) darslarning sifati	2
	d) talabalar bilimining xolisona baholanishi	1
	e) ta'lim muassasasidagi ijtimoiy-ma'naviy muhit	2
11.	Hisob yilida oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari tomonidan yozib tayyorlangan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalar, shu jumladan:	8
	a) darsliklar	6
	b) o'quv qo'llanmalar	2
12.	Reytingni aniqlanayotgan yilda xorijiy professor-o'qituvchilar va talabalar ulushi (mos ravishda umumiy songa nisbatan foizda), shu jumladan:	7
	a) xorijiy professor-o'qituvchilar	3
	b) xorijiy talabalar	4
13.	Hisob yilida xorijiy oliy ta'lim muassasalar bilan almashuv dasturlarida, konferensiyalarda, ilmiy yoki o'quv loyihalarida o'qituvchilar va talabalarning ishtirok etganligi, shu jumladan:	5
	a) akademik almashuv (talabalar tomonidan)	3
	b) xalqaro konferensiyalar, seminarlar, ilmiy yoki o'quv loyihalarida talabalar va professor-o'qituvchilarning ishtiroki	2
14.	Ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) bo'yicha xorijiy tilda o'qitiladigan fanlar salmog'i (mutaxassislik fanlarining jami soniga nisbatan foizda)	3
III. Talabalar bilimi va bitiruvchilar sifati		30
15.	Talabalarining bilim darajasi (nazorat ishlari natijalari asosida)	9
16.	Bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi (bitirganidan so'ng 6 oy ichida)	9
17.	Oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari bilim va ko'nikmalari sifati haqida ish beruvchilarning bahosi (so'rovnoma asosida aniqlanadi)	9
18.	Reyting yilida xalqaro va respublika olimpiadalarida, nufuzli tanlovlarda sovrinli o'rinnarni qo'lga kiritgan hamda mukofot(diplom)larga sazovor bo'lgan talabalar salmog'i, shu jumladan:	3
	a) xalqaro miqyosda	2
	b) respublika miqyosida	1

"Barkamol avlod" bolalar markazlarida

Sharoit bir xil, natija esa...

Sevinch Tohirova Jizzax shahridagi "Barkamol avlod" bolalar markazi tasviriy san'at to'garagi a'zosi. To'garak rahbari Akmal Jo'rayev yordamida rasm chizish sirlarini o'rganmoqda. U yaratgan bahor, qishloq, bolalik mavzusidagi rasmlar ko'pchilikka ma'qul kelmoqda. Sevinch qalam va rangtasvir, guash, moybo'yoq, akvarel yordamida qog'oz va matoga rasm chizishni mukammal o'rganib olgan. U "Illatlarga qarshi birgalikda kurashaylik!" mavzusidagi rasmlar ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Tasviriy san'at to'garagiga a'zo o'quvchilar safi kengayib borayotgani bejiz emas. Akmal Jo'rayev ko'p yillardan buyon o'z tajribasini shogirdlariga qunt bilan o'rgatib kelmoqda. Hozir 2 ta guruha 20 nafar o'quvchi mashg'ulotlarda faol ishtirok etmoqda. To'garakka a'zo bo'lish istagidagi o'quvchilar safi esa kun sayin ko'paymoqda.

Shahar bolalar markazida texnik ijodkorlik, ekologiya va o'lkashunoslik hamda badiiy ijodiyot yo'nalishlarida jami 29 ta to'garak mavjud bo'lib, 1260 nafardan ortiq o'quvchi fan bo'yicha va kasbiy mahoratini oshirmoqda.

Texnik ijodkorlik yo'nalishida kompyuter saboqlari, dizayn grafikasi, robototexnika, yosh arxitektor to'garaklari mavjud. Unga a'zo o'quvchilar turli

tanlovlarda ishtirok etmoqda. Azizjon O'rinboev o'zi yaratgan avtomodellari bilan ko'rik-tanlovning viloyat bosqichida 1-o'rinni egalladi.

Markazda ingliz va rus tili, raqs, to'qish, yosh doirachilar to'garaklari ham kun sayin qiziquvchan o'quvchilar hisobiga boyimoqda. Barno Isayeva, Shahnoza Sulaymonova, Nodira Hoshimova, Nargiza Ravshanova, Dilorom Hazratqulova kabi tajribali murabbiylar tayyorlayotgan o'quvchilar o'z yo'nalishlarida iste'dod va mahoratlarini namoyon etishmoqda.

Yoz mavsumida o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining o'rmi katta. Shu bois ham mazkur markazda farzandlarining turli to'ga-

raklarda ishtirok etishlarini istayotgan ota-onalar safi kengaymoqda. Odina To'ychiyeva qizi Sabinabonu Qodirovani biryola raqs gimnastikasi hamda munchoqli bezak to'qish to'garagida kasb o'rganishini istab, olib kelibdi. Markaz direktori Xolida Hasanovanning ta'kidlashicha, jamoada mehnat qilayotgan 16 nafar oliy ma'lumotli hamda 29 nafar o'rta maxsus ma'lumotli to'garak rahbarlarining barchasi o'z kasbining ustadisi, fidoyi murabbiylardir. Shu bois yoz mavsumida to'garakka a'zo bo'layotgan o'quvchilar safi yanada ko'paymoqda.

Jizzax viloyat "Barkamol avlod" bolalar markazi ishi bilan ham tanishdik. Markaz qoshida bor-yo'g'i 10 ta to'garak tashkil etilgan. Mehribonlik uyi o'quvchilari shahardan tashqaridagi dam olish oromgohiga ketgani sababli ularning ham 4 tasi faoliyatini to'xtatgan. To'garak a'zolari 200 nafar, xolos. Shahar "Barkamol avlod" bolalar markazi bilan taqqoslaganda oradagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi.

To'g'ri, hozir mavjud bo'lgan ayrim to'garaklarda mashg'ulot o'tkazilyapti. Masalan, pazandachilik to'garagida 10 nafar a'zo bor. Ular shirinliklar tayyor-

lash bo'yicha ko'nikma malakalarni o'zlashtirmoqda. To'garak rahbari Sanobar Boboxo'jayevaning ish boshlaganiga endi 10 kun bo'libdi. Shu bois ham uning ish rejasi va boshqa hujjatlarida kamchiliklar ko'p. To'qish to'garagida ham 10 nafar a'zo bor, O'quvchilar bolalar va kattalar uchun qalin libos va paypoq, ko'ylak, ro'mol to'qishni o'rganmoqda. Bu yerda ham to'garak rahbari Noila Oqilovanning ish boshlaganiga 1 oy bo'lgan, xolos.

Ko'rinib turibdiki, markazda kadrlar salohiyati, bilimi va ish tajribasi masalasi-ga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Kutubxonadagi ahvol ham ko'ngildagidek emas, bolalarbop kitoblarni kam. 2019-yilgi obuna ro'yxatini kuzatganimizda "Tong yulduzi", "Gulxan", "G'uncha" gazeta-jurnallariga obuna rasmiylashtirilmaganini ko'rdik. O'quvchilar o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan va tengdoshlari hayotini aks ettiruvchi bu kabi gazeta va jurnallarni qayerdan topib o'qiydi? Kutubxona va o'quv xonasiga o'quvchilar kam kelayotganining boisi ham shunda bo'lsa, ajabmas.

Shahar va viloyat "Barkamol avlod" bolalar muassasalari viloyat markazida joylashgan. Bir so'z bilan aytganda, sharoit bir xil, lekin natija turlicha. Viloyat "Barkamol avlod" markazlari mutasaddilari bolalar qamrovini oshirish borasida jiddiy o'yab ko'rishlari zarur.

Abdusattor SODIQOV,
"Ma'rifat" muxbiri

Bolangiz qaysi to'garakka qiziqyapti?

"Barkamol avlod" bolalar markaziga kelgan bolani hech kuzatganmisiz? Ilk bor qo'ldan yetaklab kelingan bolani birma-bir har bir to'garak xonasiga boshlashadi. Uning shu yerdagi jarayonni kuzatishidan qiziqishi bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Ba'zida o'quvchilar onasi, do'stlari yoki tengdoshlarining tavsiyasi sabab ham biror to'garakka a'zo bo'lishi mumkin.

Kulollik qadimiy kasblardan. Odamzodning ijtimoiy hayotida zarurat bo'lgan bu kasb yillar oshib zamonaviy ko'rinishda turfa go'zalliklarini namoyon etib kelayotir. Biroq bugungi kunda bu kasbga nisbatan munosabat risoladagidek emas. Ota-onalar, ayniqsa, bu kasbga qiziqadigan bolalarning yaqinlari befarq, loqaydlik bilan qarashadi. Kulollik deganda odamlar ko'z oldiga kulollik xarxi, ko'za, idish-tovoq, xumlar keladi. Vaholanki, bu sohaning imkoniyatlari juda keng. Kulol bilan hamkorlik qilmaydigan soha yo'q. Taraqqiyotning hamma jabhalarida bu soha yutuqlaridan foydalaniladi.

Tajribam davomida shunga guvoh bo'ldimki, bu sohaga qizlar ham qiziqishadi. Ularning kulollik bilan shug'ullanishini taqiqlashimiz kerak emas. Chunki qizlar bu kasbning nazokatiga o'z hissasini qo'shadi. Aslida usta kulollar "Kulollikning asl egalari — qizlardir", deyishadi. "Barkamol avlod" bolalar markazida bo'lg'usi kulollar bilan ishlarkanman, ustozlar o'giti yodimga ko'p tushadi. Qizlarning kulollikka munosib hissa qo'shganiga ko'p bora guvoh bo'lganman.

Ustozimiz "Loy — bu sening noning", deganida dastlab ajablanganmiz. Ammo usta loy bilan nonni shunday taqqoslab, maromida tu-

shuntirganki, biz uning so'zlarini faqat quvvatlaganmiz, xolos.

Kulollik imkoniyatlaridan qandolatchilikda ham foydalanish mumkin. Shuningdek, loydan yasalgan naqsh va gullar, taqinchoqlar qiz bola e'tiborini ko'proq tortadi. Ammo qizlar "Ota-onam kulollikka jo'natmaydi. U o'g'il bolalarning kasbi deyishadi", deydi. O'g'il bolalar esa qiz bolalardan ham sust. Bir yildan ortiq 4-5 nafar bolaga dars berdim. Ular hunar o'rganishga qiziqadi, tinmay savolga tutadi. Ba'zi bolalar a'zolik badalini to'lamasada, darsga kelayotganiga, ba'zi ota-onalar esa pul to'lolmaslikni ro'kach qilib, farzandini qiziqqan mashg'ulotidan ajratayotganiga guvoh bo'ldim. O'quvchilarning darsga munosabati: biri rasm darsidan qoniqmaydi, ikkinchisi kulollikka ota-onasi rozi bo'lmayotganini aytadi, uchinchisiga esa, to'lov og'irlik qilar ekan. Nega ota-ona bolaning qiziqishlarini inobatga olmaydi. Qachongacha ota-onalar befarq yurishadi? Bir yarim yil saboq bergan ikki nafar o'quvchim "Eng yosh kulol" nominatsiyasi diplomiga ega bo'ldi. Ammo ular bu bilan nimaga erishdi, shu parcha qog'oz ularni qoniqtirdimi? Yo'q, ular baribir e'tiborsizlik qurboni bo'ldi.

Qadimda odamlar kamolotga yetish uchun o'qigan, hozir esa boshqalarni hayron qoldirish uchun o'qishadi, degan edi Konfutsiy. Ishonch bildirilgan, rag'batlantirilgan bola albatta muvaffaqiyatga erishadi. Bolalarga xatolarini ko'rsatib jerkishga, hamisha ayblashga haqli emasmiz. Har qanday vaziyatda ham bolaga keskin munosabat bildirilmaydi. Farzand jismimizing bir bo'laki, aynan shu holatda o'zimiz qanday chora ko'rgan bo'lardik, deya fikrlashimiz o'rinni bo'ladi, nazarimda.

Akmal IKROMOV




Buxoro shahridagi "Neftchi" oromgohida ayni paytda 252 nafar o'g'il-qiz mazmunli hordiq chiqarmoqda.

"Neftchi" da maroqli kunlar

— Malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini, sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishi nazoratini yuritish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va sport musobaqalari muntazam o'tkazilmoqda, — deydi bosh yetakchi Malohat Sharipova. — Shuningdek, mohir qo'llar, kompyuter savodxonligi, sport, ingliz tili kabi to'garaklar ham ishlab turibdi.

Tohir ISTATOV (O'za)
olgan suratlar.



Ular tuman xalq ta'limi bo'limi mudiriga shikoyat qilsa, mudir direktorga hech qanday chora ko'rolmaydi.

“Direktorga mudir ham chora ko'rolmaydi!

Chunki u viloyat XTB boshlig'ining ayoli”

Bu — bir tomonning fikri, ya'ni shikoyat qilayotganlarning. Mutasaddilarning fikrini esa, afsuski, bilolmadik.

Tahririyatimizga Farg'ona tumani Xonqiz qishlog'ida yashovchi nafaqadagi o'qituvchi Alijon Bakirjonovdan shikoyat kelib tushdi. Unda muallif Farg'ona tumanidagi Mindon qishlog'ida joylashgan 9-maktabda yuz berayotgan nohaqliklar, jumladan, ushbu ta'lim muassasasida mehnat qilayotgan jiyani Mahliyo So'fiyevaning maktab direktori X.Turdimatova tomonidan muntazam haqoratlanishi, nohaq ishdan bo'shatilgani va maktabda nosog'lom muhit hukm surayotgani xususida yozgan.



“Jiyanim Mahliyo So'fiyeva tumandagi 9-maktabda rus tili fani o'qituvchisi bo'lib ishlardi, — deyiladi shikoyat xatida. — 2017-yilning avgust oyida u maktab direktori X.Turdimatova tomonidan haqoratlanib, og'zaki buyruq bilan nohaq ishdan bo'shatildi. Qo'liga hech qanday ogohlantirish xati berilmadi. 3 oylik homilador Mahliyo So'fiyeva kamsitilgani, sog'lig'i yomonlashgani sababli shifokorga murojaat qiladi. Natijada bir hafta davomida uyda davolanadi. Shundan so'ng viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasiga murojaat qildik. Mutaxassis O.Rahmonov masa-lani o'rganib, M.So'fiyeva nohaq ishdan bo'shatilganini aniqladi. Mutasaddilar va maktab jamoasi bilan yig'ilish o'tkazib, jiyanimni ishga tiklab ketdi. Bu vaqtda maktab direktori malaka oshirishda bo'l-gani uchun kasaba uyushmasi a'zolari yig'ilishida ishtirok etmadi”.

Bu paytda Mahliyo So'fiyevaning turmush o'rtog'i Elyor So'fiyev ham shu maktabda direktor o'rinbosari bo'lib ishlardi.

Shikoyat ortida inson taqdiri turgani bois muammoga oydinlik kiritish va masalani xolis o'rganish maqsadida 9-maktabga bordik.

Biz borgan payt maktabda o'quv yili yakunlanayotgan edi. Direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Elmurod Karimov muddaomizni eshitib, TUMAN XALQ TA'LIMI BO'LIMIDAN RUXSAT OLIB KELISHIMIZNI, AKS HOLDA MAKTABGA KIRITMASLIGINI BILDIRD. Direktor Xolida Turdimatovaga qilgan qo'ng'iroqlarimiz esa javobsiz qoldi.

Jurnalistik odob qoidalarini buz-magan holda o'z haq-huquqlarimizni tushuntirmoqchi bo'ldik. Ammo Elmurod Karimov bizni eshitisini xohlamadi. Undan maktabda 748 nafar o'quvchi o'qishini biloldik, xolos.

Shundan so'ng tuman xalq ta'limi bo'limiga bordik. Dastlab mudir Rasuljon Turg'unovni viloyatda yig'ilishda deyishdi, so'ng o'zi bilan qo'l telefoni orqali gaplashganimizda tuman markazida tadbirida ekanini aytdi.

Rasuljon Turg'unovga juda ko'p savollar berdik. “Nega 9-maktabga kirishimizga rozi bo'lmaysiz? Maktabning tumandagi reytingi qanaqa? O'tgan uch yil davomida maktab bilimlar bellashuvi, fan olimpiadasi, “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi” kabi tanlovlarda qanday natija qayd etgan?” kabi savollarimiz javobsiz qoldi.

Aksincha, mudir Farg'ona viloyat xalq ta'limi boshqarmasida ishlovchi Umid ismli xodimga qo'ng'iroq qilishimizni tayinladi. U bilan ham gaplashdik. Biroq Umidjon ham maktabga kiritilmayotganimiz sababini izohlay olmad.

Va nihoyat yana tuman markazidan 35 km yo'l bosib, Mindon qishlog'iga qaytdik.

Direktorimiz juda qasoskor ayol. Kimdir unga gap qaytarsa yoki fikri va qilayotgan xatti-harakatlari noto'g'ri ekanini aytsa, boshi baloga qoladi. Direktor ana shu o'qituvchini ishdan bo'shatmaguncha tinchimaydi. Har qanaqasiga ayb topib, boshqa hamkasblarimiz oldida izza qilaveradi.

Ismi sir qolishini istagan o'qituvchi biz bilan suhbatda quyidagilarni aytib berdi:

— O'quv yili yakunlanishini hech kim menchalik kutmayotgan bo'lsa kerak. Chunki bu yerda ishlash qahramonlik bo'lib qoldi. Birinchi navbatda direktorimiz bilan ishlash azobga aylangan. Arzimagan narsaga jahli chiqadi, o'quvchilar oldida ham bizni behurmat qiladi. Sal narsaga baqirib, ishdan bo'shatish haqida tahdid qiladi. To'g'risi, siz bilan uchrashib, gaplashayotganimni biron ko'rib qolishidan qo'rqayman. Sababi, u bu haqida bilib qolsa, menga yana tahdid qilishni boshlaydi. Kim uning ustidan shikoyat qilsa, oxir-oqibat o'zi aybdor deb topiladi. Agar direktorning jahli chiqib turgan bo'lsa, o'sha xodim ishdan bo'shatiladi. Maktabda guruhbozlik avj olgan. Direktor bu illatni yo'qotib, maktabda sog'lom muhitni vujudga keltirish o'miga o'zi bosh-qosh bo'lib sog'lom muhitni izdan chiqarib qo'ydi. Yig'ilishlarda hech kimni ayab o'timaydi. O'qituvchining zig'irdek aybini topsa, uni barcha hamkasblari oldida izza qiladi. Qishloq joyda ayollarga boshqa ish yo'qligi, boshqa maktablar uzoqlik qilgani uchun noiloj shu yerda ishlashga majburiy. Agar oilamizdagi moddiy sharoit yaxshi bo'lganida bir daqiq ham bu ayol rahbarlik qilayotgan maktabda ishlamasdik.

— Men bu dunyoda adolat, haqiqat yo'qligiga yana bir karra ishonдим, — dedi jabr ko'rganlardan yana biri. — Bu maktabda hamshira bo'lib ishlardim. 2017-yili paxta terimi payti bir-ikki kun sababli paxtaga chiqmaganim, ayrim noqonuniy talabini bajarmaganim uchun direktor menga tazyiq o'tkaza boshladi. Shunday qilib, hech kun bermagach, boshqa maktabga ishga o'tib ketishga majbur bo'ldim. Hozir uyimdan 35 km uzoqdagi maktabda ishlayapman.

Nega shuncha muammo va kamchiliklar bo'laturib bu haqida maktab jamoasi emas, nafaqadagi o'qituvchi yuqori tashkilotlarga shikoyat yozmoqda? Nega o'qituvchilar o'z ism-familiyasini bu qadar sir tutishni, “Bizga hech narsa qilmaydimi?” deya qayta-qayta so'ramoqda?

— O'qituvchilarning dardi ichida, — deydi shikoyat muallifi Alijon Bakirjonov biz bilan suhbatda. — Sababi, ular tuman xalq ta'limi bo'limi mudiriga shikoyat qilsa, mudir direktorga hech qanday chora ko'rolmaydi. Chunki Xolida Turdimatova Farg'ona viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Ma'rufjon Turdimatovning turmush o'rtog'i!

Mehnat kodeksining 79-moddasi (qarindosh-urug'larning davlat korxonasi-birga xizmat qilishlarini cheklash)-da o'zaro yaqin qarindosh yoki qudanda bo'lgan shaxslarning (ota-onalar,

aka-ukalar, opa-singillar, o'g'il va qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va bolalari), basharti ulardan biri ikkinchisiga bevosita bo'ysunib yoki ularning nazorati ostida xizmat qiladigan bo'lsa, bir davlat korxonasi-birga xizmat qilishlari taqiqlanadi, deb belgilangan.

Bu qoidadan istisnolar O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanishi mumkin.

Shu o'rinda savol tug'iladi — Xolida Turdimatova turmush o'rtog'i Ma'rufjon Turdimatov boshqarma boshlig'i lavozimiga tayinlangandan keyin maktab direktorligiga tayinlanganmi? Yoki avvaldan bu vazifada ishlab kelganmi?

Ma'lum bo'lishicha, X.Turdimatova 2018-yilgacha, ya'ni turmush o'rtog'i boshqarma boshlig'i bo'lguniga qadar ham maktab direktori vazifasida ishlagan. Viloyat prokuraturasi taqdimnomasiga asosan, XTB boshqarma boshlig'ining 2018-yil 10-yanvardagi 14k-sonli buyrug'i bilan vazifasidan bo'shatilgan. Keyinchalik yana lavozimiga tiklangan. Uni kim, qanday asos bilan lavozimiga tikladi? — degan savolga esa, afsuski, javob ololmadik.

Mahliyo So'fiyeva masalasiga qaytsak. Mahliyoning turmush o'rtog'i Elyorjon So'fiyev bo'layotgan ishlarga dastlab e'tibor bermadi, so'ngra ayoli va boshlig'i o'rtasidagi tortishuvga chidamadimi yoki boshqa sabablar ham bor edimi, hayyo-huyt deb Rossiyaga ketvordi. Mana bir yildan buyon u chet elda oshpazlik qilmoqda.

— 2016-2017-o'quv yilida maktabning sakkiz nafar o'qituvchisi boshqa maktablarga ishga o'tib ketdi, — deydi yana bir o'qituvchi. — Direktorimiz juda qasoskor ayol. Kimdir unga gap qaytarsa yoki fikri va qilayotgan xatti-harakatlari noto'g'ri ekanini aytsa, boshi baloga qoladi. Direktor ana shu o'qituvchini ishdan bo'shatmaguncha tinchimaydi. Har qanaqasiga ayb topib, boshqa hamkasblarimiz oldida izza qilaveradi.

Direktor Xolida Turdimatova bilan bog'lanishga urinishlarimiz samara bermadi. Maktabdan topolmadik, telefon raqami esa doimo band rejimida turibdi.

Shuningdek, A.Bakirjonovning arizasida maktab hisobraqamidagi budjetdan tashqari topilgan mablag'lar noqonuniy o'zlashtirib yuborilgani, o'qituvchilar va yuqori sinf o'quvchilariga majburiy kitob sotilgani, yuqori sinf o'quvchisi no'rin xatti-harakatlari sabab boshqa maktabga majburiy ravishda o'tkazib yuborilgani kabi holatlar ham keltirilgan bo'lib, biz masalaga adolatli yondashgan holda xolis surishtiruv o'tkazish niyatida edik. Afsuski, direktorning qarshiligi bois bu maqsadimizga yetolmadik.

Shu bois, ushbu shikoyatda keltirilgan ayblovlariga ikkinchi tomonning ham munosabatini kutib qolamiz.

O'z navbatida, maktab direktori, tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi mutasaddilarning jumalistning xizmat vazifasini bajarishga qarshilik qilib, ta'lim muassasasiga kirishini taqiqlashiga doir holat bo'yicha Xalq ta'limi vazirligidan munosabat kutib qolamiz.

Sharifa MADRAHIMOVA,
“Marifat” muxbiri

Qalbidagi nur

"Beruniydan kam ish qilmabsiz!.."

Otam, Ubaydulla Isroilovich Karimov (1920—1997) men uchun faqat ota emas, balki birinchi ustoz hamdir. 5-6 yoshlik vaqtlarimda "Ming bir kecha" ertaklari tarjima qilinib, 8 jildlik to'plam bo'lib nashr etilgandi. Shuning 4-jildini otam to'liq tarjima qilgan. Har kuni tunda uyquga yotishimdan oldin, dadam shu kitobdan yoshimga mos bo'lgan ertaklarni aytib berardi. Tong otdi, Shahrizod hikoya aytishni to'xtatdi, deb yakunlard va men ertasi kuni yana oqshom cho'kishini, otam ertakning davomini aytib berishini intizorlik bilan kutardim.



Arxiv surat.

Maktabga borib, savodim chiqqan vaqtda ota-onam menga juda ko'p ertak kitoblari olib kelib bergan. Ularning ba'zilari rus tilida edi. G'arb yozuvchilarining rus tiliga tarjima qilingan asarlarini ham o'qib chiqqanman. Bu mening til o'rganishimda asqotgan. Bunda dadamning xizmati nihoyatda katta edi. Maktabda ingliz tilini o'qiganmiz. Institutda ham ingliz tilidan katta-katta matnlarni tarjima qilishga to'g'ri kelardi. Ba'zi so'zlarning tarjimasiga qiyalmasam, dadamdan so'rdim, lug'atdan ko'rdingmi, derdilar. Yo'q desam, avval lug'atdan qara, shunda ham chiqmasa, keyin mening yonimga kelasan, der edi. Shunday qilib, dadam menga lug'at bilan ishlashni o'rgatgan. Endi bilsam, otam menga manba bilan ishlashni sekin-asta singdirgan ekan.

Dadam ikki narsani juda yomon ko'rardi: birinchisi — yolg'on gapirish, ikkinchisi — qarzdorlik. Menga ham, ukamga ham shuni yoshligimdan o'rgatganlar. "Hech qachon birovdan qarzdor bo'lma va yolg'on gapirma. Qarzdorlik faqat mablag' jihatidan emas, balki hamma tomonlama birovning oldida tiling qisiq bo'lmasin", derdilar.

"Sirlar siri"ning ochilishi

Sharqshunoslik institutida ishlab yurgan chog'lari Abu Bakr

Nemis olimi Yulius Rushka mashhur Sharq tabibi va olimi ar-Roziyning asarlarini chuqur o'rgangan. Uning "Kitob ul-asror" ("Sirlar kitobi") asarini yaxshi tahlil etgan. Ammo ar-Roziy asarlari orasida "Sirr ul-asror" ("Sirlar siri") kitobining sarlavhasini ko'rib, uni xato bo'lsa kerak, ya'ni "Kitob ul-asror" dan boshqa "Sirr ul-asror" kitobini Roziy yozmagan, deb hisoblagan asarining qo'lyozmasi chiqib turibdi.

Men katta bir ilmiy kashfiyot yuz berganimni angladim...

Har safar bu haqda o'ylasam, shunday insonning qizi ekanligimdan faxrlanib ketaman. U kishining bu topilmasi faqat jamoani emas, balki barcha ilm ahlini quvontirgan. Qur'on ma'nolarini rus tiliga tarjima qilgan mashhur sharqshunos olim I.Y.Krakhkovskiy "Men sizni sharqshunoslikdagi kashfiyot bilan tabriklayman", deb telegramma jo'natgan.

Otam nima uchun aynan kimyoviy asarni tanlagan? Chunki mutaxassisligi bo'yicha ikkita oliy ma'lumotga ega edi. O'rta Osiyo davlat universitetining kimyo-texnologiya fakultetini tamomlab, aspiranturaga kirganida Ikkinchi jahon urushi boshlangan va urushga ketgan. 1943-yili frontdan yaralanib qaytgan. Shu yili O'rta Osiyo davlat universitetida Sharq fakulteti ochilgan. Otam Sharq allomalari asarlariga, madaniyatiga qiziqishi katta bo'lgani uchun shu fakultetga o'qishga kirgan. 3-kursda o'qiyotganida Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti aspiranturasiga qabul qilingan. Shu vaqtdan institutning Qo'lyozmalar fondida manbalar bilan ishlay boshladi. Sharq fakultetini bitirgach, ilmiy ish bilan bir qatorda, fors klassik she'riyat nazariyasi bo'yicha talabalarga dars ham bergan.

Umri davomida 40 yildan oshiq faoliyati Sharqshunoslik institutida o'tdi. Bu yerda fan tarixi bo'yicha allomalarning asarlarini ilmiy istifodaga kiritish bo'yicha ish olib bordi. Abu Bakr ar-Roziydan keyin Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarini o'zbek va rus tiliga tarjima qilishda qatnashdi. Bu asar tarjimasida ustada to'rt guruh ish olib bordi. Har bir guruhda tajribali olim bilan birgalikda yosh olim ishlaydi. Uchta guruh shu tartibda tuzildi. To'rtinchi guruhda esa otamning o'zi ishlaydigan bo'ldi. Otam "Qonun"ning bir qismini tarjima qilish bilan birga qolgan guruhlar o'g'irgan tar-

jimaning ham filologik tahriri bilan shug'ullanadi. "Tib qonunlari"ning 5-kitobini o'zbek tiliga arabshunos olim Abbos Boqiyevich Xolidov otamning ishlari-ga baho berib: "Siz Beruniydan izohlar tuzib chiqqan. Izohlarni tuzishda arab, fors, turk, ingliz, FA Sharqshunoslik institutida Beruniyning yirik, fundamental asarlari ham o'zbek, ham rus tiliga tarjima qilinib, ikki tildagi silsila yaratilgan. "Saydana" rus tilidagi seriyadan joy oldi, endi uni o'zbek tiliga tarjima qilish kerak edi. Bu asar arab tilida yozilgan. Unda Beruniy mingdan ortiq dorilarning turli tillardagi nomi, tavsifi va manbasi haqida ma'lumot beradi, lekin o'zi tibbiy amaliyot bilan shug'ullanmagan bo'lsalar, ularning tibbiy ta'siri haqida gapirmaydi. Shunday bo'lsa, "Saydana" dorishunoslik bo'yicha ko'pillik lug'at sifatida tabiblar uchun juda foydali asar bo'lgan. Masalan, XIII asrda Abu Bakr Kosoniy ismli olim uni fors tiliga tarjima qilgan. Kosoniy o'zi tabib bo'lgani uchun tarjimagi "Saydana"da keltirilgan dorilarning tibbiy ta'sirini ham qo'shgan. Otam "Saydana"ning o'zbek tiliga tarjimasini boyitish maqsadida Kosoniy keltirgan ma'lumotlarni ham qo'shimcha qilib kiritdi. Afsuski, bu ishni bitirishga umri yetmadi. Lekin men bu ishning otam uchun qanchalik muhim ekanligi va Beruniy asarining ahamiyatidan kelib chiqib, uni oxiriga yetkazishga qaror qildim. O'ylaymanki, u ham nashrdan chiqsa, otamning ruhi shod bo'ladi.

Ibn Sino tavalludiga 1000 yil to'lgani 1952-yili qamariy hisobda nishonlangan bo'lsa, ikkinchisi 1980-yili milodiy hisobda UNESCO ishtirokida juda katta xalqaro tantana bo'lgan edi. Besh kitobdan iborat ushbu asar olti jildda nashr etilgan. Bu ishga otam bosh-qosh bo'lgan. O'sha vaqtgacha "Tib qonunlari" biror marta zamonaviy tilda to'liq chop qilinmagan. Birinchi nashrdan so'ng yana yangi qo'lyozmalar, ilmiy adabiyotlar qo'lga kiritilgan edi. Ikkinchi nashrdan shulardan foydalanib, avval tarjimasini chiqmagan ibora va istilohlar aniqlashtirilib, ancha tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan. Bu juda katta mehnat talab qiladi. Ibn Sinoning fondimizda saqlanadigan tibbiy risolalari bor. Ulardan 11 tasini otam shogirdlari Hamidulla Hikmatullayev, Eminjon Talabov bilan birga jamlab, o'zbek tiliga izohli tarjima shaklida nashr etganlar. Tibga oid manbalardan yana Roziyning mashhur asari "Chechak va qizamiq haqida"ni o'zbek tiliga o'g'irgan. Unda birinchi marta Roziy tabobatda emlash amalini qo'llagan to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

Otam fan tarixi bo'yicha izlanishlarini davom ettirib, doktorlik dissertatsiyasi sifatida Abu Rayhon Beruniyning "Kitob as-saydana fit tib" asarini rus tiliga ilmiy izohli tarjima qilgan. Bu tarjima Beruniyning rus tili-

dagi "Tanlangan asarlar" silsilasining IV jildi shaklida nashr bo'lgan. Leningradlik mashhur arabshunos olim Abbos Boqiyevich Xolidov otamning ishlari-ga baho berib: "Siz Beruniydan izohlar tuzib chiqqan. Izohlarni tuzishda arab, fors, turk, ingliz, FA Sharqshunoslik institutida Beruniyning yirik, fundamental asarlari ham o'zbek, ham rus tiliga tarjima qilinib, ikki tildagi silsila yaratilgan. "Saydana" rus tilidagi seriyadan joy oldi, endi uni o'zbek tiliga tarjima qilish kerak edi. Bu asar arab tilida yozilgan. Unda Beruniy mingdan ortiq dorilarning turli tillardagi nomi, tavsifi va manbasi haqida ma'lumot beradi, lekin o'zi tibbiy amaliyot bilan shug'ullanmagan bo'lsalar, ularning tibbiy ta'siri haqida gapirmaydi. Shunday bo'lsa, "Saydana" dorishunoslik bo'yicha ko'pillik lug'at sifatida tabiblar uchun juda foydali asar bo'lgan. Masalan, XIII asrda Abu Bakr Kosoniy ismli olim uni fors tiliga tarjima qilgan. Kosoniy o'zi tabib bo'lgani uchun tarjimagi "Saydana"da keltirilgan dorilarning tibbiy ta'sirini ham qo'shgan. Otam "Saydana"ning o'zbek tiliga tarjimasini boyitish maqsadida Kosoniy keltirgan ma'lumotlarni ham qo'shimcha qilib kiritdi. Afsuski, bu ishni bitirishga umri yetmadi. Lekin men bu ishning otam uchun qanchalik muhim ekanligi va Beruniy asarining ahamiyatidan kelib chiqib, uni oxiriga yetkazishga qaror qildim. O'ylaymanki, u ham nashrdan chiqsa, otamning ruhi shod bo'ladi.

Birinchi ustozim — otam!

Kimyo sohasiga kirib kelishimga otam sababchi bo'lgan. Chunki birinchi ma'lumoti bo'yicha kimyogar edi. Shu fakt



Arxiv surat.



Arxiv surat.

keyinchalik mening ham fan tarixi bilan shug'ullanishimda muhim omil bo'ldi. Uyimda sharqshunoslik bo'yicha katta kutubxonayig'ilgan. Menda ham fan tarixiga qiziqish paydo bo'ldi. Toshkent davlat universitetining Sharq fakulteti qoshida kechki til kurslari bo'lardi. Shu yerda arab tili ikki yillik kursini bitirib, 1985-yil oxirida FA Sharqshunoslik institutiga ishga keldim. Otam bu yerda ishni qo'lyozmalarni ilmiy tavsiflashdan boshlash zarurligi uchun kataloglashtirish bo'limida ishlashni tavsiya qildi. Vaholanki, o'sha vaqtda yozma yodgorliklarni nashr etish bo'limida rahbar edi. Lekin haqiqiy sharqshunos-manbashunos bo'lish uchun qo'lyozmalarning tavsifidan ish boshlash kerak, deb shu bo'limda ishlashimni tavsiya qilgan. Shu tarzda qo'lyozmalarni ilmiy tavsiflash va kataloglashtirish bo'limida ish boshlaganman. Hamidulla Hikmatullayev bilan birga tibga oid qo'lyozmalarni alohida katalog qilib nashr etganmiz. Kimyoga oid qo'lyozmalarni ham tavsiflab chiqqanman. Qo'lyozmalar bilan ishlash ko'nikmasini shu bo'limda o'rganaganman. Ana shundan keyin mustaqil ravishda dorishunoslikka, kimyoga oid qo'lyozmalar ustida ish boshlaganman. Otamning ilmiy rahbarligida doktorlik dissertatsiyamni yozdim. Afsuski, dissertatsiyamni yoqalayotganimda yonimda yo'q edi. 2001-yili yoqladim. Shu sohaga meni otam olib kirdi. Hozir Sharqdagi kimyo, tabobat va dorishunoslik tarixi yo'nalishida ishlayapman.

Yerda ishlash — hordiq

Onam — tarix fanlari doktori Nafisa Sodiqova (1930—2015) O'zbekiston davlat tarix muzeyida ko'p yil direktor bo'lib ishlagan. Mehnat faoliyatini 80 yoshigacha davom ettirdi. O'z sohasida yetuk mutaxassis edi. Tashkilotchilik qobiliyati kuchli edi. Otamga ilmiy ish bilan shug'ullanish uchun barcha sharoit yaratib bergandi. Ro'zg'orning hamma masalasini onam o'zi hal qilardi. Otam doktorlik dissertatsiyasini yozayotganida bir kunda 12 soat ishlardi. Xonasiga ertalab kirib ketar, soat birda ovqatlan-gani chaqirganimda chiqardi. Yana kechki ovqatga chiqardi-da, ishlash uchun kirib ketardi. Onam ro'zg'or tashvishlari bilan otamning vaqtini olmasdi. Uning ilm uchun yaratilganini anglab, qo'lidan kelgunicha qo'llab-quvvatlardi. Otamning ilmida shu darajaga yetishida onamning hisssasi katta, deb o'ylayman. Otamning institutda ham obro'si baland edi. Hamma hurmat bilan qarardi. Otam mehnat ta'tili vaqtida faqat dam olardi, ishlamasdi. Tabiat qo'yniga chiqardi, dam olishga ketardi. Xumsonga chiqib dam olardi. Qibrayda dala hovlimiz bor edi. Ekinlarga qarab, yerda ishlab, daraxtlarni parvarish qilib dam olardi. Kuzda meva pishganida hosilni terish uchun dala hovliga ketardik. O'ylaymanki, ota-onamda nuqsonlardan ko'ra insoniy fazilatlar ko'proq bo'lgan. Men shunday insonlarning farzandi bo'lganimdan faxrlanaman.

Surayo KARIMOVA — Ubaydulla Karimovning qizi, kimyo fanlari nomzodi, tarix fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari.

Charos YOQUBOVA tayyorladi.

Mahmud SA'DIY loyihasi.

Sharqda mashhur so'z va iboralar

GULGUN — Sharq xalqlari og'zaki va yozma adabiyotida G'irko'k, Boychibor, Jiyrongush kabi an'anaviy mashhur ot obrazi. Ammo barcha dostonlarda Gulgun taniqli botir-u polvonlarning oti emas, balki Shirinning shaxsiy oti sifatida talqin qilingan. Nizomiy Ganjaviy qalamiga mansub "Xusrav va Shirin" dostonining asosiy obrazi bo'lgan Shiringa qarashli oting nomi. Ushbu mashhur jiyron ot xalq orasida ham shu nom bilan mashhur bo'lgani aytiladi. Alisher Navoiy dostonning 31-bobida Gulgunni mahorat bilan tasvirlaydi. Lirik tasvirda u Shirinning o'zi bilan uning Gulgun nomli otingning nomlanishidagi poetik uyg'unlikka alohida e'tibor qaratgan va uyg'unlikni topgan hamda bu uyg'un tasvirda o'z salaflarini ortda qoldirib, o'zining beqiyos mahoratini ko'rsata olgan:

*Bor edi bodpoyi rangi gulgun,
Qilib andin yururda xingi gardun.
Anga rikob hamesha ul parivash,
Bo'lib ul devapaykar ham parivash.
O'zi gulrang-u gulmonand zoti,
Bo'lub Gulgun xaloyiq ichra oti.
Jahon bog'ida yo'q ul bodpodek,
Bo'lub gul bargin elturga sabodek.
Xiromon bo'ldi ul yon sarvi ozod,
Rikobida hamul xaloyiq berdi.*

Anglanshiladiki, baytlarda shoir turli badiiy vositalardan g'oyat keng va unumli foydalangan hamda baytlar mazmunini yaxshi ochib bergan. Masalan Shirinni parivash, otini dev gavalidi deb, talozum san'ati, ot so'zini ikki ma'noda, nom va ot ma'nosida ishlatib, iyhom san'ati, Shirinni gul bargiga, Gulgunni saboga o'xshatib, tashbeh hamda mubolag'a san'atining ajoyib namunalarini yaratgan.

QOSID — xabarchi, xat tashuvchi, elchi, chopar, intiluvchi kabi ma'nolarni anglatuvchi so'z. Alisher Navoiyning lirik va nasriy asarlari matnida keng qo'llangan shaxs oti hamda badiiy obraz. Ulug' shoir "Vaqiya" asarida o'zi haqida yozgan va biz uchun nihoyatda qimmatli bo'lgan tarixiy xarakterga ega, ya'ni u shohning rasmiy chaqiruvchi bilan Samarqanddan Hirotaga qaytganligi haqidagi ma'lumotda qosid so'zini davlat yorlig'ini keltirgan Husayn Boyqaroning chopari, xos kishisi, ya'ni o'zining zamondoshi sifatida qo'llagan: "Nogoh saltanat gulshanidin inoyat nasimi esa kirishit va xilofat borghohidin hidoyat qosidi yetishdi va davlat manshurin ilmiga berdi". Ulug' Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida qosid badiiy to'qima obrazini san'atkorona yaratgan va bu badiiy personaj Shirinning xabarini Sheruyaga yetkazgan elchi obrazidir. Alisher Navoiy bu lirik lavhada qosid-maqosid shaklida betakror qofiya ham ijod qilgan:

*Borib Sheruyag'a farxunda qosid,
Chu qildi arz bu yanglig' maqosid.*

OFOQ BEGIM JALOYIR (XV asr 2-yarmi — XVI asr boshlari) — iste'dodli shoira. Alisher Navoiyning tog'asi Hasan Ali Jaloyirning qizi. Uka-si Darvesh Alining xotini. Faxri Hirotyi 1555-yili yozgan "Javohir ul-ajoyib" ("Ajoyib javohirlar") tazkirasida 31 nafar shoir qatorida tilga olgan: "Va Ofiq begim xushta'blikka dunyoning mashhur edi. Amir Darvesh Ali kitobdorning xotini edi. Uzoq yillar qubbat ul-islam — Balxda hokimlik qilgan va Amir Alisherning ukasi edi. Va Ofiq begim Jaloyir yaxshi she'rilar yozgan, ulug' va oddiy odamlar orasida juda mashhur bo'lgan edi". O'zbekiston Qahramoni S.G'aniyeva mazkur tazkirada shoiraning to'rtta mustaqil matla va bir

ruboiyining tarjimasini bergan: "Bu matla ham uniki va juda yaxshi:

*Ashkiki, sar z-go'shai chashmai beroun kunad,
Ba ro'yi man nashinadu davoyixun kunad.*

Ya'ni:

*Ko'zim burchagidan oqib tushayotgan yosh,
Yuzimdan joy oladi-yu, qon da'vosi qiladi.*

Adabiyotshunos Ergash Ochilov ham shoira ruboiylaridan namunalar tarjima qilgan.

XUTBA — Juma namozlarida, diniy bayramlarda xatib tomonidan o'qiladigan va'z. Bunda Oллоhning birligi va Muhammad (s.a.v.) uning payg'ambari ekanligini yodlab o'qish barobarida podshohlik taxtida o'tirgan shaxsning nomi ham tilga olingan. Muayyan podshohning siyosiy hukmronligining e'tirof etilishi uning nomi xutbaga kiritilishi-kiritilmasligi bilan belgilangan. Navoiy "Munshaot"dagi Badiuzzamon mirzoga yozilgan 56-maktubda shahzodaga turli hayotiy masalalarda tanbehlar bitar ekan, shulardan biri shahzodaning xutbadan otasi Husayn Boyqaro nomini olib tashlagani haqidadir. Chunonchi: "Mirzoga Temurbek to'rtunchi nasabdur. Mirzo xutbada bekning otig'a sharif ruhig'a masjidi jomeda har odina kuni duo qildirurur. Bu ishda Mirzog'a ham duodin o'zga ne kelgay. Siz nishoningiz tug'rosidan Mirzoning muborak otin chiqorsiz. Kerak Iroqdin Makka, balki Mag'rib zaming'acha olsangiz bu voqea bo'lmas erdi".

BUZURGUMID — Sharq xalqlari adabiyotidagi an'anaviy vazir obrazi. Shayx Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" dostonida Buzurgumid Xusravning dono, kordon va sodiq vaziri sifatida tasvirlanadi. Nizomiy dostonida vazir haqida "Buzurgumid xislati" nomli alohida bob yozgan va bobda dono vazirni shunday ta'riflaydi:

*Buzurgumid edi bir shaxsi oqil,
Ulug' umidli oqil hamda fozil.
Oyog'i ostida yotq jahon ham,
Xayolida kezardi osmon ham.
Nihoniy so'z durin sochguvchi erdi,
Samovot xazinasin ochguvchi erdi.*

Alisher Navoiy ham "Farhod va Shirin" va "Tarixi muluki Ajam" asarlarida vazir Buzurgumid obrazini Xusravning vaziri sifatida tanishtiradi.

Burobiya RAJABOVA, filologiya fanlari nomzodi

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat" kabi asarlarida ham xutba haqidagi hayotiy va badiiy lavhalarni yozib qoldirgan.

Ijodkor a'lochilar kerak!

Ilk bor maktabga qadam qo'ygan jajji qalb egasini kutib olar ekansiz, oldingizda sermashaqqat yo'l borligini, uning oxirida millat kelajagi turganini his etasiz.

Boshlang'ich sinfda savod o'rgatishdan boshlangan darslar orasida estetik bilimlar ham o'quvchilar ongiga singdirib boriladi. Bolajonlar avval harflar, sonlarni, keyin o'qish, hisoblash ko'nikmalarini egallay boshlaydi. Shu jarayonda biz ustozlar ijodkorlikni, yaratuvchanlikni tarbiyalaydigan fanlarga ko'proq e'tibor qaratishimiz lozim. O'quvchimiz hisoblashda oqsayapti, o'qish texnikasini DTS talabiga mos o'qimayapti deb, "ikkinchi darajali" hisoblangan, aslida esa qobiliyat va iste'dodlarni uyg'otuvchi fanlar hisobidagi daqiqalarni "o'g'iraymiz". Natijada oddiy o'quvchilardan farq qiluvchi yangi iste'dod egalarni — ijodkorlarni e'tiborsiz qoldiramiz. Aksariyat hollarda o'quvchilarimiz DTS me'yorlarini bajarishi uchun ona tili, o'qish texnikasi va matematik hisob-kitoblarni qolgan fanlardan ustun qo'yamiz va savod chiqarishlariga bor kuchimiz, vaqtimizni sarflaymiz. O'quvchimiz savod chiqarsa, hisob-kitobni o'rgansa, erkin nafas

ola boshlaymiz. Bu qanchalik to'g'ri?! O'quvchimiz a'lochi bo'lsa-yu, bilimni yaratuvchanlikka sarflamasa, achinarli emasmi? Hayotga ijodkorona qadam bosib kelayotgan o'quvchimiz yil o'tib "to'tiqush"ga aylanadi. Bunday "a'lochi"lardan nima naf?!

Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z faoliyati davomida "Men kimni tarbiyalayapman, o'quvchining iste'dodini bo'g'ib qo'ymayapmanmi?" kabi savollarga javob qidirishi kerak. Shu savollar orqali xatolarini tahlil etishi lozim...

Bolalar musiqa va san'at maktablari yoki "Barkamol avlod" markazlariga tutashiruvchi yo'l — ta'limning ilk bosqichidir. Iste'dodi, qobiliyati aniqlansagina, bolani yo'naltirish mumkin. Ko'p hollarda bu kurtaklar nis hotmay turib,




qurib qolmoqda. Qishloq maktablarida asosiy fanlardan tashqari musiqa, texnologiya, tasviriy san'at fanlarini ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'tadi. Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchilarini

tayyorlash, malakasini oshirish jarayonida estetik fanlarni o'rgatishga ajratilgan soatlar biroz kam emasmi?! Bunday fan sirlarini ma'lum qobiliyatga ega mutaxassislar tushuna olishi kundek ravshan-ku! To'g'ri, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ichida ijodkorlari ham ko'p. Ular o'z ustida ishlaydi, fidokorona mehnat qiladi, ammo ayrim hollarda o'qituvchilar bunday fanlarni o'qitish metodikasini yaxshi bilmaydi. Demak, ijodkor o'quvchilarni aniqlash va ularni qiziqishi bo'yicha to'g'ri yo'naltirish uchun, avvalo, pedagog kadrlarni tayyorlaydigan muassasalarda estetik fanlarga ajratilgan soatlarni ko'paytirish, ularga e'tiborni kuchaytirish shart. O'zi yaxshi rasm chiza olmagan o'qituvchi o'quvchilarga tasviriy san'atning nozik sirlarini tushuntira olmaydi.

Shahnoza MIRZAYO'LDOSHEVA,
Chinoz tumanidagi 22-maktabning
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Yangi manzilli yordam maskani

Qarshi shahrida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazining navbatdagi mintaqaviy filiali o'z ishini boshladi. Filial binosi bolalar ehtiyojini inobatga olgan holda qulay mebellar, asbob-uskuna va jihozlar bilan ta'minlangan.



Bu yerda turli darajali sensor buzilishlari, shuningdek, aqli, ko'rishi, eshitishi, nutqida muammosi bo'lgan bolalar uchun sensor xonasi jihozlangan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar asosida jihozlangan xona qo'rquv, xavotir, tajovuzkorlik, shaxsiy va kommunikativ og'ishlarni korreksiyalashga ko'maklashadi.

Defektolog va surdopedagog xonalarida mutaxassislar bolalardagi nutqiy buzilishlarni bartaraf etish bo'yicha mashg'ulotlar olib boradi.

Montessori xonasida Nobel mukofoti laureati Mariya Montessori ishlab chiqqan ilk ta'lim-tarbiya berishga asoslangan noyob uslublardan foydalaniladi. Mashg'ulotlarning asosiy mohiyati — imkoniyati cheklangan bolalarning individual qobiliyatini asta-sekinlik bilan rivojlantirish imkonini beruvchi maxsus rivojlanish nuqtalarini topishdan iborat.

Qum terapiyasi xonasi ijodiy ja-

rayonni faollashtiradi. Loy va qum, dukkakli o'simliklar bilan o'yinash orqali bolalarning kuchli hissiy kechinmalari tashqariga yo'naltiriladi, asabiy zo'riqish va xavotir kamaytiriladi, qo'rquv va salbiy holatlar ketadi, o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi.

Musiqiy terapiya xonasida bolaning hissiyotini rivojlantirish, uni go'zallik olamiga oshno qilish mumkin.

Fitoterapiya xonasida bolalarga maxsus tayyorlangan, foydali moddalarga boy giyohli damlamalar taklif etiladi.

Filialdagi ixtisoslashtirilgan basseynda suv bilan davolash yordamida bemorlarning qo'zg'alish va tormozlanish jarayoni me'yorga keltiriladi, uyqusi va qon aylanishi yaxshilanadi.

Filial qoshida faoliyat olib boradigan "Ota-onalar klubi"da ota-onalar o'zaro muloqot qilib, imkoniyati cheklangan bolalarni

parvarishlash va tarbiyalash yuzasidan tajriba almashadi, bir-birlaridan ma'naviy ko'mak oladi. Bu yerda mashg'ulotlar ota-onalarning stressga chidamliligini oshirish, ulardagi ruhiy-hissiy zo'riqishni yo'qotishga yo'naltirilgan treninglar ko'rinishida olib boriladi.

Trenajor zallarida har bir bola uchun sog'lig'i va imkoniyatiga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan individual dasturlar asosida mashg'ulotlar o'tkaziladi. Mashg'ulotlar davolovchi jismoniy tarbiya uslubchisi tavsiyalariga binoan olib boriladi.

Qarshi mintaqaviy filiali to'liq davlat budgetidan moliyalashtirilib, bolalar va ularning oilalari uchun barcha xizmatlar bepul amalga oshiriladi.

Lola RAHIMOVA,
Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi direktori o'rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor

Kecha televizor ko'rmoqchi bo'lib pultni topolmadim. Qidirishga erindim. Keyin o'zimga o'zim savol berdim: rahmatli bobongdan qolgan odamlarini oq-qora qilib ko'rsatadigan televizor esingdami?! "Shum bola"ni ko'rish uchun buzoqli sigirga necha marta suv tashigandim?! Qo'shnilardan ombur so'rab chiqqaning-chi?!

Sartaroshga suvoq qildirmang

"Yoshlar"dan "O'zbekiston"ga olish uchun televizor murvatini ombur bilan burab, ustiga uch-to'rt qayta urib qo'yading. Hozir shahardasan, televizoring ham yangi, hech kim senga "yer ag'dar, keyin ko'rasan", demaydi. O'n yil oldin besh-olti yuz metr tuproq kechib, ombur qidirishdan charchamasding. Bugun ukangning o'yinchoqlari orasidan pultni olib zangori ekranni yoqishga erinasan. Bir tomondan, to'g'ri ham qilasan. Ko'nglingga yaqin kino yoki qo'shiq topishga qiyalasan. Televizor bir qarasang omadimga ishonib "boriga baraka" qilib yashashni, bir qarasang yordam qo'lini cho'zgan insonlar ustidan kulishni o'rgatadi. Aytilayotgan poyintar-soyintar qo'shiqlar matnini o'qib, na bir orom, na bir taskin topasan. Ishlanayotgan kinolarning deyarli hammasi o'xshash, saviyasi past. Boshini ko'rib oxiri nima bilan tugashini aytib berolasan. Chunki kasbi umuman boshqa va kino san'ati bo'yicha boshlang'ich bilimiga ham ega bo'lmagan "rejissor"larimiz ko'p. Otasining puli bilan san'atga kiray kelayotgan ayrim "ijodkorlar" tungi klub va restoranlardan beri kelmasa, aktrissalarimiz sport zallarida o'zini suratga olib ko'z-ko'z qilishdan erinmasa, qachon biz madaniyat haqida gapiramiz? Bugun butun boshli telekanallarimiz insonni chalg'itadigan, baxkana ko'rsatuvlar maydoniga aylandi. "Xafa bo'lish yo'q" emish, u siz-u bizga nima beradi? Bizga nimani uqtirmoqchi? Haqiqiy qo'shiqning yuragi — she'r, haqiqiy kinoning yuragi — mukammal yozilgan asar. Bizning ijodkorlarga she'r kerak emas, o'zlari ham gap yozib qo'shiq aytib yuraveradi. Bu bizning maqsaddan adashganimiz. Qachon maqsadga yetamiz? Qachonki bu mavzudagi salbiy muhokamalar pasaysa... Hamma o'z ishini qilsa. Nega deganda "sartaroshga suvoqchilik qildirsangiz, devorga sovun surkaydi, etikdo'zga soch oldirsangiz, boshga mix qoqadi!"

Sardorbek POYONOV

Mutolaa to'g'ri munosabatni o'rgatadi

Ko'p yillar davomida ijod qilishga va shu asnoda o'quvchilarimni ham adabiyotga, kitobga qiziqtirishga harakat qildim. Badiiy kitob o'qib bormasam, matbuotda ijodiy ishlarim bilan qatnashib turmasam, o'quvchilarim fanga ham, kitobga ham qiziqmaydiganek tuyuladi. Bir paytlari ijodga ishtiyoqmand o'g'il-qizlar uchun "Yosh qalamkashlar" to'garagini tashkil etgandim. Ularning ijod namunalari devoriy gazetada, tuman va respublika nashrlarida chop ettirishga harakat qildim. Hatto Qoraqalpog'iston Respublikasi televideniyesi va radiosida ham o'quvchilarim bilan chiqish qilganman. Hozir ko'p yillar avval o'qitgan o'quvchilarimning farzandlarini o'qita boshladim. Sobiq o'quvchilarga berilgan ta'lim-tarbiya beiz ketmaganidan quvonaman. Hanzuz izlanishdamiz. O'quvchilarni kitobga oshno etish borasidagi ayrim tajribalarim va takliflarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Adabiyot darslaridagi sinfdan tashqari o'qishlarda qiziqarli biror hikoyani gapirib berish yoki biror she'rni ifodali yod aytish ham o'quvchilarga tez ta'sir qiladi. "Yozib olaylik" deb darrov qiziqishganiga ko'p guvoh bo'lganman. Ularning oz bo'lsa ham kitob o'qishiga umid qilganman.

Hozir maktab kutubxonasi kitoblar bilan boyimoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ham, yuqori sinf o'quvchilari ham yoshiga mos asarlarni topib o'qishi mumkin. Xo'sh, endi bolalarni badiiy adabiyotga, kitobxonlikka qiziqtirish uchun yana nimalar qilishimiz kerak? Bu masalada ota-onalar o'qituvchilarga ko'mak berishi lozim. Ota-onalarning uyda bolalarni televizordan, telefondan, kompyuterdan biroz cheklashiga to'g'ri keladi. Mutolaa — o'zini o'zi tarbiyalash demakdir. Kitob bolaning qalb ko'zini ochadi. Bu farzand tarbiyasida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, boshqa fan o'qituvchisi ham dars payti to'rt qator she'r yoki biror hikoyadan misol keltirsa, bu ham o'quvchilarga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, muassasalarda ma'naviyat soati o'tiladi. Shu soatlarda juda bo'lmaganida oyda bir marotaba she'r yoki hikoya haqida suhbat uyushtirilsa, yaxshi bo'lar edi.

Tanlanadigan hikoya kichik hajmli va qiziqarli bo'lmog'i lozim. Odatda o'quvchilar bir o'tirishda o'qiladigan asarlarni yaxshi qabul qiladi. Bu imkoniyatdan unumli foydalanishimiz kerak. Badiiy adabiyotga qiziqqan o'quvchining ma'naviy xazinasi kundan kunga boyib boradi. Endi u o'z uyida kitob javoni tashkil etishga kirishadi. Dunyoga mashhur insonlarning hayoti, taqdiri ularni qiziqtiradi. Maksim Gorkiyning qanday qiyinchiliklar bilan kitob o'qiganini o'quvchilar bilishmas balki. Abdulla Qodiriy ham qanday qiyinchiliklar bilan ilm olganini hamma bilmaydi. Kitob olamiga qiziqish balki jamiyatimizga qancha tadbirkorlarni yetkazib berar, balki buyuk insonlarning nomini kashf etar. Badiiy kitoblar hayotga to'g'ri munosabatda bo'lishni, to'g'ri fikrlashni o'rgatadi. Albatta, ongli odam Vatani taqdiriga hech qachon befarq bo'lmaydi.

Toir RO'ZIBOYEV,
To'rtko'l tumanidagi
64-IDUM o'qituvchisi

Milliy tarbiya muhim

Insonlar bo'sh vaqtda yoki dam olish maqsadida, albatta, televideniye qarshisida o'tirib biror-bir ko'rsatuvni tomosha qilishni yoki musiqa tinglashni yoqtiradi. Bu yaxshi, albatta. Ma'naviy hordiq chiqarish inson ruhiyatiga sokinlik va tetiklik baxsh etadi. Yoki o'zingiz yoqtirgan biror qo'shiqni xirgoyi qilsangiz ham, asabingiz tinchlanib, yangi kuch to'playsiz. Demak, musiqa, kuy, qo'shiq, ohang va turli raqs harakatlari — kishi sog'lig'i, tananing immun tizimi kuchayishiga katta yordam berar ekan. Biroq shunday qo'shiqlar borki, ularni tinglab so'zlaridan hayron qolasan, kishi. Yoki ularni ijro etayotgan qo'shiqchilarning kiyinishi, xatti-harakatlari mentalitetimizga mos emasligini ko'rib, beixtiyor afsuslanasan. Qayerda qoldi milliy liboslarimiz?! Axir yoshlarga tarbiya faqat pand-nasihattan iborat emas-ku! Hozirgi shiddatli davrda musiqiy ta'limda milliy tarbiyani yo'qotmaslik lozim. Ulg'ayib kelayotgan kelajak avlodni tarbiyalashda bobobularimiz o'g'itlarini qalbimizga singdirib, muomala, kiyinish, qolaversa, sahna, qo'shiq kuylash madaniyatini o'rgansak maqsadga muvofiq bo'laradi.

Dilnoza ROZIQOVA,
G'ijduvon tumanidagi
28-maktab o'qituvchisi



Kitobga mehr uyg'otaylik!

Ota-onalar farzandlarining yozgi ta'tili maroqli o'tishi uchun harakat qiladi, turli rejalar tuzadi. Ayni shu rejalar qatoriga kitob o'qishni ham kiritishi juda-juda zarur deb o'ylayman. Chunki o'zligimizni yo'qotmasligimiz kerak.

Yaqin-yaqingacha o'zbek xonadonlarida uzun qish kechalari xira chiroq yorug'ida kitobxonlik qilinaradi. Kitob o'qishni bilganlar xalq ichida obro'li kishilar edi. Hofiz, So'fi Olloyor, Bedil, Fuzuliy, Mashrab g'azallarini yod bilmaslik or sanalardi. Turli marosimlarda to'planganlarga kitoblar o'qib berish kabi betakror odatlar bor edi. Ana

shunday kitobxon xalq vorislari bugun deyarli kitob o'qimay qo'yd.

Hozir biror kishidan "Ayni paytda qanday kitob o'qiyapsiz?" deb so'rasangiz, javob ham tayyor: "Kitob o'qishga vaqt qayoqda deysiz, erta-ya kech miyada ro'zg'or tashvishi", "Kitob o'qishni yaxshi ko'raman, ammo o'qishga vaqt topolmayapman", "Kitob o'qigan bilan qorin to'yamdim?!".

To'g'ri, kitobxonlar qiziqqan sohalarda, talab qiladigan mavzular biroz o'zgargan. Avvallari ko'proq didaktik (pandoma) asarlar mutolaa qilingan bo'lsa, hozir ilmiy-texnikaviy adabiyotlar, xotiralar, sarguzashtlar, tabobat, diniy-ma'rifiy

Baxt surati

Dunyoda bino bo'libdiki, insoniyatni bir tuyg'u birlashtirib turadi, bu mehr-muruvvatdir. Afsuski, qalbimizdagi ana shu muhabbatni ba'zida beg'uborlik bahoriga ko'milib unayotgan farzandlardan ayro tutamiz, ulardan muruvvat qo'llarini uzamiz.

So'zimiz hayotiy bir voqea bilan dalillamoqchiman. Tumanimiz markazida muhtasham bir bino qad rostlagan. Bu dargohdan har kuni o'tayotib, ko'zim tanish holatga tushadi: bir bolakay binoning keng va yorug' oynasidan atrofini kuzatadi. Bolakayning nigohi menga tanish bo'lib qolgan edi. Bir kuni bino ichkarisiga kirishga shoshildim, bino peshtoqiga "Mehribonlik uyi" deb yozilgan. E'tiborimni bino oynasidan boqib turgan bolakayga qarattim, uning ko'zlari ma'yus, yuzlari esa issiq, ammo mehr-muhabbatdan sovuq qotgan vujudi insonga mudroq boqar edi, men u bilan biroz suhbat qurdim.

Unga qarata "Isming nima, katta bo'lsang kim bo'lasan?", deya savollar berdim. Bolakay biroz tin olib, dedi: "Ismim Hayotbek, yoshim oldida, bilasizmi, katta bo'lsam kim bo'lamam?" Rassom bo'lamam, men faqat baxt rasmini chizaman".

Men undan baxt nima ekanini so'radim. Hayotbek "Baxt — Vatanim, ota-onam", dedi. U shunday mag'rurlik va shijoat bilan javob berardiki, aqlim shoshib qoldi. Chunki u o'tanasining issiq bag'rida bo'lmasa ham, vatan unga mehr qo'llarini uzatgan edi. Mana shuni u BAXT deb hisoblar edi-da.

Aziz vatandosh, dunyoga bola ko'zi bilan boqing, shunda yovuzliklar sizga ko'rinmaydi, qalbingiz poklanib, butun umringizni ezigulikka safarbar etasiz.

Ozoda XO'JAYOROVA

kitoblarga qiziqish ancha ortgan. Ana shunday kitoblar bozori chaqqonligi fikrimiz isboti. Shunga qaramay, xalqimizning kitobxonlik darajasi sustligi haqiqat. Balki buni kimlardir bozor iqtisodiy qiyinchiliklariga to'nkar. Ehtimol, ayrimlar davr shiddati ortib, turli texnikaviy vositalar orqali axborot olish qulaylashganini ro'kach qilar... Bir narsani yodda tutaylik: kitob o'qimagan xalq johillikka mahkumdur. Kitob o'qimagan, ilmga intilmagan, ruhiyatini boyitishga loqayd qaragan millat farzandlari o'zligini, erkini, madaniyatini boy berishi muqarrar!

O'ktamxon QURBONOVA,
Besharig shahridagi
1-maktab o'qituvchisi

Tushlikka emas, "obed"ga desang-chi!

Shunaqasiam bo'larkan: biror so'zni o'z ona tilingda aytasan-u, kulgiga qolasan. O'zlaricha seni "aqlli"ga chiqarishadi. Xullas, voqea bunday bo'ldi: uch-to'rt yaqin dugona sayrdan qaytayotgan edik. Ancha yo'l yuribmiz, tomog'imiz qaqrab, oshqozonda "isyon" boshlandi. Ertalab havo yaxshi edi, biroq ikki soat orasida juda isidi. Yaqin oradagi tamaddixonalardan biriga ovqatlanishga kirdik. Chanqog'imiz bosildi, "isyon" ham. Shu payt telefonim jiringladi. Ko'tarsam, yaqin tanishim. Ko'cha shovqini unga eshitildi chog'i, qayerdaligimni surishtirdi. "Dugonalarim bilan tushlik qildik. Endi uyga qaytayapmiz", dedim. Telefonda gaplashib bo'lgach, sheriklarimga qarasam, piqir-piqir kulishadi. Sababini surishtirsam, kulgini avjiga chiqarishadi. Nihoyat birovni tilga kirdi: "Tushlik qildik", de. Javobimni ham eshitmay, yana hirlinglashdi. Kulgining sababini tushungandek bo'ldim. "Tushlik" so'zi erish tuyuldi ularga. Bir gal yana bir tanishim bilan suhbatda shu so'zni ishlatib, "kitobiy so'zlovchi"ga chiquvdim.

Hozir ham shunga o'xshash holat. Nima qilish kerak? Qancha

urinmay, sheriklarimga bu aslida ona tilingizga xos so'z ekanini uqitrolmayman. Shu o'ylar girdobida ketayotсам, kulgidan tingan dugonam: "Soddagina qilib "obed" desang-chi", deb qoldi. Aslida, kinning holi kulgili? E'tibor bermadim. Ulardan ham, shu so'zni eshitganda og'zining tanobi qochuvchilardan ham ranjdim.

O'z tilingda so'zlab, kulgiga qolsang, keyingi gal "soddagina qilib" gapirishga harakat qilasan-da! Ko'pdan ajralmay deysan-da! Ammo qarorim qat'i: keyingi safar ham men "qiyinroq" gapiraman, "kitobiy" gapiraman. Biroq "zavtrak"ni nonushta, "ujin"ni kechlik deyatotganlarning ham hammasi o'z ahdida qat'iymi? Bilmadim. Bilganim shu: o'z ona tilingizda mukammal so'zlashdan tortinar ekanimiz, o'zga tilni davlat tili etmoqchi bo'lib taklif berganlarning tegirmoniga suv quyaveramiz.

Iroda ABDUJALILOVA

Tabiat va biz

Sayyoramizdagi so'nggi gigantlar

Yoxud fillar nega yo'qolib bormoqda?

Quruqlikdagi eng yirik sutemizuvchilar — fillarni tomosha qilish, ularning xatti-harakati va yashash tarzini kuzatish hamisha zavq bag'ishlaydi. Gavdasi yirik, ammo muloyim va yoqimtoy jonivorlar azaldan insonlarga do'st, og'ir yumushlarida yordamchi bo'lgan. Shunga qaramay, odamzod ularning eng katta dushmani hamdir.

Qachonlardir sayyoramizning turli burchaklarida ming-minglab fillar erkin, xavf-xatarsiz yashagan. Ammo keyin ushbu jonivorlar hayotiga odamlar xavf sola boshladi. Ular fillardan jang maydonlarida, qishloq xo'jaligida yuk tashish uchun, o'tish qiyin bo'lgan yo'llarda transport vositasi sifatida foydalandi. Ayniqsa, fil suyaklari uchun ularni ovlaydigan brakonyerlarning ko'payishi bu hayvonlar sonining keskin kamayishiga olib keldi. Bugunga kelib Afrikada 500 ming, Osiyoda 30 mingga yaqin fil qoldi, xolos.

Ma'lumki, fillar qadimdan jamiyat hayotida muhim rol o'ynagan. Hozir ham Daniya, Tailand singari davlatlarda fil xalqning sevimli jonivori hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarda sayyohlarga fillar ishtirokida turli tomoshalar, bayram dasturlari namoyish etish odat tusiga kirgan. Fillar ham o'zining quvnoqligi, rasm chizish qobiliyati bilan mehmonlarni bir zumda o'ziga maftun etadi.

Bugun dunyoning turli burchaklarida fillarga bag'ishlangan bir qancha bayramlar, xususan, 30-noyabr — Xalqaro fillar kuni, 13-mart — Tailanddagi fillar kuni, 22-sentabr — Xalqaro fillarni himoya qilish kuni keng nishonlanadi. Ayniqsa, 20-iyun — Hayvonot bog'idagi fillarni himoya qilish xalqaro kunida jonivorlarni himoya qiluvchi tashkilotlar va fillarni yaxshi ko'ruvchilar ulkan "yoqimtoy"larni asrash va ularning yashashi uchun qulay sharoit yaratish maqsadida birlashadi.

Sir emaski, so'nggi yillarda ko'plab tashkilotlar fillarni qirilib ketishdan saqlab qolish uchun tabiatdan ajratib olib, maxsus pavilonlarda parvarish qilyapti. Aksar mamlakatlarda odamlar tomosha qilishi uchun fillar hayvonot bog'larida saqlanadi. Birgina AQShning o'zidagi 20 ga yaqin hayvonot bog'ida fillar pavilonlari tashkil etilgan. Ayanchlisi, bu yerlarda ishchilar fillarga har doim ham yaxshi munosabatda bo'lmaydi. Ularga buyurilgan ishlarni bajarishi uchun ba'zan shafqatsiz jazo usullari ham qo'llaniladi. Vaholanki, fillar boshqa hayvonlar kabi tor hayvonot bog'lari-yu, maxsus pavilonlar emas, balki bepoyon yovvoyi tabiat bag'ridagina o'zini erkin va baxtiyor his etadi. Fillarning harakati cheklansa, ular xastalanib qolishi, hatto o'lishi mumkin.

Bu holatlarga befarq qarab turolmagan Hayvonlarni himoya qilish tashkiloti a'zolari 2009-yili hayvonot bog'ida yashaydigan fillarni himoyalash xalqaro kuniyini joriy etish tashabbusi bilan chiqqanida ko'pchilik bir ovozdan

buni qo'llab-quvvatladi. O'shanda tashkilot tarafdorlaridan biri, amerikalik aktrisa Lili Tomlin o'z chiqishida yig'ilganlarga murojaat qilib, "Fillar tutqunlikda, shahar hayvonot bog'larida har kuni aziyat chekib yashash uchun yaratilmagan. Men barchani 20-iyun sanasida o'tkaziladigan hayvonot bog'idagi fillarni himoya qilish birinchi xalqaro kunida faol ishtirok etishga chaqiraman. Keling, birgalikda fillarga yordam beraylik! Ishonamanki, hech bir inson ushbu ulkan jonzotlar uchun bu joyni qulay deb hisoblamaydi. Bugun fillarni hayvonot bog'larida saqlash amaliyotiga chek qo'yishning vaqti keldi", dedi. Hozir bayram norasmiy tarzda nishonlansa-da, tashkilot a'zolari tez orada BMTning ushbu sanaga rasmiy maqom berishiga ishonmoqda.

Chindan ham bahaybat, ammo beozor ko'rinishdagi fillarni ko'pchilik yaxshi ko'radi. Ular haqida ko'proq bilishga intiladi.

Fillar bizning davrimizgacha yashab qolgan yagona aqlli jonivorlar bo'lib, hozirda Janubi-sharqiy Osiyo hamda Afrikaning tropik o'rmonlarida yashaydi. Bugungi kunda fillarning ikkita turi — balandligi 2,5 metr, og'irligi 3—5 tonnaga boradigan Osiyo (hind) hamda vazni 5—7 tonna, balandligi 4 metr bo'lgan Afrika fillari saqlanib qolgan. Xalqaro tabiatni asrash uyushmasi tomonidan hind fillari "xavfli holatda joylashgan", Afrika fillari esa "xavfga yaqin holatda joylashgan" hayvonlar sifatida "Qizil kitob"ga kiritilgan.

Fillar o'txo'r hayvon bo'lib, hayotining asosiy qismini yegulik izlash bilan o'tkazadi. Aniqlik, bir sutkada 15—20 soat qornini to'yg'azish g'amida bo'ladi va bu vaqtda 40 kilogramdan 450 kilogramgacha o't yeydi. Asosan o'simlik va daraxt barglari bilan oziqlanadi. Ular juda ko'p yegani bois hayoti davomida tishlari 6-7 marta almashadi. Tutqunlikdagi fillarga esa bir sutkada 10 kg sabzi, 30 kg xashak, 8—10 kg non beriladi. Shuningdek, ularning taomnomasiga tuz, kalsiy, ozuqa qo'shimchalari kabi vitamin va minerallar ham qo'shiladi. Fillar havo haroratiga bog'liq holda 100 litrdan 300 litrgacha suv ichadi.

Fillarning quloqlari ham gavdasiga mos tarzda ulkan bo'ladi. Quloqlarining kengligi 2 metrga boradi. Uzun va katta quloqlardan ko'pincha tanasini sovitishda foydalanadi. Jonivorning dandan tishlari esa uzunligi va shakliga ko'ra bir-biridan yarim metrgacha farq qiladi. Filning boshqa hayvonlarda uchramaydigan xartumi ham lab, ham

burun vazifasini bajaradi. Jonivor xartumi orqali nafas olish bilan birga, undan hid bilish, sezish, ustidan suv quyish va buyumlarni ushlashda foydalanadi. Xartumida 500 tagacha mushaklar joylashgan bo'lib, fil bolalari uni to'g'ri boshqarishni 2 yoshigacha o'rganadi.

Fillar orasida odamlardagi kabi chapaqay va o'naqaylar bor. Bu ularning qaysi tomondagi tishlari ko'proq ishlashiga bog'liq. Fillar juda yaxshi suzadi, lekin sakray olmaydi. Shu bois ular to'siqlarni shunchaki hatlab yoki aylanib o'tadi.

Fillar juda oilaparvar bo'lib, odatda bir nechta oilalar bir to'dada birlashib yashaydi. Afrikadagi fil to'dalarida bir necha minglab fillar bo'lishi mumkin. Ularda haqiqiy matriarxat tizimi shakllangan bo'lib, to'daga tajribali ona fil boshchilik qiladi.

Fillar juda mehribon va g'amxo'r jonivorlardir. Ular bolalarini butun to'da bilan birgalikda yirtqichlardan himoya qiladi. Yosh fil 15 yoshgacha oilasi bag'rida yashab, so'ng mustaqil hayotga qadam qo'yadi.

Fillar juda aqlli hayvon. Ularning ko'pgina harakatlari odamlarnikiga o'xshash. Masalan, ular ko'rishganlarida bir-birlari bilan o'ziga xos tarzda salomlashadi. Bunda ulardan biri boshqasini xartumi bilan quchoqlaydi. Agar to'dadagi fil bolalaridan birortasi yiqilsa, uni ko'rgan katta fil darhol xartumi bilan tortib, o'rindan turg'azadi.

Fillarda his etish qobiliyati yaxshi rivojlangan. Ular qayg'u, quvonch, g'amginlik, hatto depressiyani boshdan kechirishi mumkin. Fillar dafn marosimini o'tkazadigan yagona hayvon hisoblanadi. Ya'ni to'da a'zolaridan birortasi o'lsa, ular xartumlarini tepaga ko'tarib, xuddi karmay chalgan singari kuchli ovoz chiqaradi. Birozdan keyin jim bo'lib, o'lgan filning ustiga shox-shabbalar tashlay boshlaydi.

Fillar uzoq yashovchi hayvonlar bo'lib, o'rtacha 75—80 yil umr ko'radi. Ammo qimmatbaho suyaklari tufayli ovchilar ko'p hollarda ularning uzoq yashashiga yo'l qo'ymaydi. Shu bois so'nggi yuz yillikda keksa fillarni uchratish amrimahol bo'lib qoldi. 1989-yilda BMT qaroriga ko'ra, fillarni otish taqiqlanib, fil suyaklari xalqaro savdosiga chek qo'yilganiga qaramay, ushbu ulkan hayvonlar qirilib ketmoqda. Ularni himoyalash maqsadida daxlsiz himoya zonalarini yaratish ham vaziyatni o'zgartira olmayapti. Afrika hududidagi fillar tinimsiz ovlanayotgan bo'lsa, hind fillari aholi zich joylashgan hududdan siqib chiqarilayapti. Ba'zan esa fillar bu yerlarda oziq-ovqat yetishmasligi va suvsizlikdan halok bo'lmoqda. Bunday vaziyatda hatto hayvonot bog'lari ham maqbul yechim emas. Chunki fillar tutqunlikda ko'paymaydi, natijada



ularning umr ko'rish darajasi bir baro-barga qisqaradi.

20-iyun — Hayvonot bog'idagi fillarni himoya qilish xalqaro kunida dunyo ahlining e'tibori yuqoridagi muammolarning yechimini izlash va tabiatda yashab qolgan yagona ulkan hayvonlar — fillarni qirilib ketishdan asrab qolishga qaratiladi. Shu kuni jonivorlarni himoya qilishga chog'langan insonlar, yirik tashkilotlar hamda bayram tashabbuskorlari tomonidan fillar va ularning hayot tarzidan so'zlovchi turli ma'rifiy tadbirlar tashkil etilib, tushgan pullar fillarning yashash sharoitini yaxshilashga yo'naltiriladi. Madaniyat markazlarida fillarni asrash va ularga qulay sharoit yaratishga bag'ishlangan seminar, konferensiyalar o'tkaziladi. Ko'rgazma zallarida fillarning eksklyuziv fotosuratlarini namoyish etiladi. Teleekranlarda fillar haqida hujjatli va badiiy filmlar, bolalar uchun esa multfilmilar namoyish etiladi.

Bu kunda barchaning e'tibori ushbu yoqimtoy jonivorlar, ayniqsa, hayvonot bog'larida saqlanayotgan fillarning huquqlarini himoya qilishga qaratiladi. Harakat faollari hayvonot bog'larida aksiyalar o'tkazib, bog' rahbarlarini u yerdan fillarni ozod qilish va ularni tabiat bag'riga qo'yib yuborishga chorlaydi.

Aslida, jahonda fillarga g'amxo'rlik ko'rsatib, ularning erkin yashashi uchun barcha qulayliklarni yaratib berayotgan davlatlar, tashkilotlar yo'q emas. Hatto fillardan sayyohlarni jalb etish maqsadida foydalanadigan Tailandda bunga chek qo'yilib, ushbu hayvonlarni asrash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayrim davlatlarda fillarga bo'lgan iliq munosabatni ularning bayroq, gerb va tangalariga tushirilgan tasvirlardan payqash mumkin. Turli shaharlarda ko'zlarni quvnatib turgan fil haykallari ham insonlarning ushbu hayvonlarga bo'lgan mehr-muhabbati timsolidir.

Ammo kishilar fillarga qanchalik g'amxo'rlik ko'rsatib, yopiq sharoitlarda parvarishlashga urinmasin, bu orqali ularni asrab qololmaydi. Chunki fillar barcha hayvonlar kabi yovvoyi tabiat bag'ridagina o'zini erkin va baxtiyor sezadi.

Iroda TOSHMATOVA
taylorladi.

Maxmudov Dilshodbek Ergashbekovichning 14.00.38 — Sport tibbiyoti ixtisosligi bo'yicha "Professional sportchilarda nafas yo'li va somatop ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini tizimli o'rganish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.05.2018.Tib.69.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 10-iyul kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Olmazor ko'chasi, 6-uy.
Tel/faks: (71) 241-38-03, 241-30-93; e-mail: medsport@gmail.com

Yulchiyev Sunnatulla Tuychibayevichning 14.00.38 — Sport tibbiyoti ixtisosligi bo'yicha "Sportchi-futbolchilarda somato-psixologik holatlarning o'ziga xosligi va funksional bog'liqligini aniqlash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.05.2018.Tib.69.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 10-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Olmazor ko'chasi, 6-uy.
Tel/faks: (71) 241-38-03, 241-30-93; e-mail: medsport@gmail.com

Xodjayev Anvar Zakirovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Malakali og'ir atletikachilarda dast ko'tarish texnikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 16-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy, bosh o'quv binosi, 2-qavat anjumanlar zali.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Keldiyorov Shuxrat Ergashovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Kurash milliy sport turi harakatlarini dastlabki o'rgatish uslublarini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 16-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy, bosh o'quv binosi, 2-qavat anjumanlar zali.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Xurramov Jasur Kuyliyevichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Kichik maktab yoshidagi bolalarning sensitiv davrida jismoniy tarbiya darslarida harakatlarni tekzkorligini rivojlantirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 17-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy, bosh o'quv binosi, 2-qavat anjumanlar zali.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Abdullayev Mehridin Junaydulloyevichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Yosh yengil atletikachilarning mashg'ulot samaradorligini oshirishda harakatlari o'ynalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 17-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy, bosh o'quv binosi, 2-qavat anjumanlar zali.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Met'yakubov Azamat Djumanazarovichning 08.00.13 — Menejment ixtisosligi bo'yicha "Qurilish materiallari sanoatiga investitsiyalarni jalb etishning boshqarish samaradorligini oshirish ("O'zqurilishmateriallari" AJ misolida)" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 12-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 232-01-49; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Gapparova Zulfiya Xurshidovnaning 11.00.05 — Atruf-muhitni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanish ixtisosligi bo'yicha "O'zonga xavfli bo'lgan freon-12 o'rni mahalliy xomashyo asosidagi ozonga xavfsiz freonga almashtirish" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.03.2018.K.T.04.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 12-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 32-uy.
Tel/faks: (71) 244-79-20; e-mail: tkti@mail.uz

Yuldashev Alisher Alimjanovichning 11.00.05 — Atruf-muhitni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanish ixtisosligi bo'yicha "Mis va molibden ionlariga tanlovchan bo'lgan anionidarni olish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.03.2018.K.T.04.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 12-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 32-uy.
Tel/faks: (71) 244-79-20; e-mail: tkti@mail.uz

Fattaxov Ravshan Abdurashidovichning 14.00.21 — Stomatologiya. 14.00.33 — Jamiyat salomatligi. Sog'liqni saqlashda menejment ixtisosligi bo'yicha "Ambulator stomatologik qabulda bemorlarning psixoeemotsional tarangligini tuzatish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 15-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.
Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Ametov Yakub Idrisovichning 03.00.06 — Zoologiya ixtisosligi bo'yicha "Qoraqalpog'iston qushlarining bioxilma-xilligi va ularni muhofaza qilish (faunasi, ekologiyasi, muhofazasi)" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Zoologiya instituti va O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.29.08.2017.B.52.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 19-iyul kuni soat 14:00dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232-"B" uy.
Tel/faks: (71) 289-04-65, 262-79-38; e-mail: zoology@academy.uz

Rajabov G'ulomjon Qurbonboyevichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Malakali bokschilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda musobaqa faoliyati natijadorligini shakllantirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 18-iyul kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy, bosh o'quv binosi, 2-qavat anjumanlar zali.
Tel/faks: (70)717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

AT Xalq banki Yashnobod filiali Yashnobod tumani Aviasozlar ko'chasi, 65-uyda joylashgan kichik bank binosini qayta ta'mirlash uchun quruvchi tashkilotlar o'rtasida tanlov e'lon qiladi.

Tanlov komissiyasi ishchi organi manzili: AT Xalq banki Toshkent shahar filiali, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko'chasi, 9-uy.

Tanlov o'tkazish shartlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni maxsus axborot portali www.xarid.uz saytidan, shuningdek, dushanba — juma kunlari soat 9:00 dan 18:00 ga qadar yuqorida ko'rsatilgan manzil orqali olish mumkin.

Tijorat takliflari 2019-yil 12-iyul kuni soat 15:00 ga qadar qabul qilinadi. Tijorat taklifida tanlov o'tkazish shartlarida belgilangan barcha hujjatlar bo'lishi lozim.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Matematika fakulteti "Differensial tenglamalar va matematik fizika" kafedrasida dotsenti Numanjon Mamadaliyevga akasi

Bahodirjon MAMADALIYEVning vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektorati, professor-o'qituvchilari jamoasi universitetning "Informatika va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida professori, pedagogika fanlari doktori, Xalqaro pedagogik ta'lim va "Turon" akademiyalari akademigi

Abduqahhor Abduvakilevich ABDUQODIROVning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya bildiradi.

O'qituvchi xotiralari

Jumboq

yoxud talabalik yillaridan bir naql

1.

Baxtiyor! Talabalik yillarimning unutilmas hamrohi va sirdoshi! Bormisan, omonmisan?! Dashovuzlar joyindami?!

Men tez-tez seni, saboqdosh do'stlarni eslab turaman. She'riyatga oshno bo'lgan o'sha damlar, o'ttiz ikki nafar yigit-qiz paxta terimi payti rutubati kuz oqshomini qaritish uchun ko'kka o'rlagan gulxan atrofiga bahribayt (biz uni "baytbarak" deb ham atardik) aytishgan tularni, keyin davrani kengroq olib, o'yin-kulgiga navbat berganimizni, guvalaklik Asadulloning ting'ir-ting'ir tor chertib, "Men sevaman, sen sevasanmi"ni kuylashini, qaynarlik Abdusalomning to'ng'irlik palapartish chalib, do'rtloq tovushda unga jo'r bo'lishga urinishini, jarqo'rg'onlik Abdusamadning oramizda "eng oliy podxod (tilyog'lamachilik)" deb tan olingan "hat-t, joningdan"lab olqishlashini, Ashurning qiyiq ko'zlarini suzib, davraga sarxush nigoh tashlaganicha, arzonbaho sigaretni bosib-bosib tortib (o'ziyam ham sohada deyarli hammamizga ustozlik qilgandi), ichiga yutgan tutanni burnidan pag'a-pag'a chiqarishini, oramizda eng yoshi kichigimiz — qarshilik Zavqning (Olloh uni rahmatiga olgan bo'lsin) sho'xliklarini, sho'rchilik Xudoyberdining (go'ri nurga to'lsin) mo'ylovini o'ynatib, davraga sin solishini, chandirlik Shirinboyning (safimizdan birinchi yo'qotganimiz, oxirati obod bo'lsin) mardona raqs tushishini, silliq sochlari yelkasi qiyilgan kitoblik Sodiqning (familiyasi ham g'alati edi — Markayev) nimadandir norozi to'ng'illashini, eng qoruvlimiz — mirishkorlik qo'li shirin oshpazimiz Haydar aka yakshanba kunlari damlaydigan xush'ta'm palovxonto'rani (darvoqe, hozir ham to'rt-beshovimizning boshimiz birikkan davrada qitmir Muzaffar gapni "sen qachon osh qilib berasan"dan boshlaydi) ... sog'inaman.

Ikkalamiz (biroz she'royastligimiz bor edi, shekilli) almoiy-jalmoyi misralar aytib, davrani qizitishga urinardik. To'g'ri, sen sho'x-shaddodroq, men esa chuvakkina jussamga nisbatan ancha vazmin va og'irtabat edim. Biz har qancha urinmaylik, Umirqol (biz singari oddiy qishloq bolasi) o'zi yozgan "Qo'shni qiz"ni qimtinibroq, qayta-qayta talablardan so'ng o'qib, qarsaklarga sazovor bo'lardi. Ammo har gal ma'sum (balki charchoq alomatidir) va ma'nodor ko'zlarini chirsillab yonayotgan gulxanga qadab, vujudga titroq va orom baxsh etguvchi ovozi bilan "Onajon"ni o'qigan g'uzorlik Matluba uloqni ilib ketaverardi.

Deyarli har oqshom bahribaytimiz allaqachon hammamizning ardog'imizga sazovor bo'lgan Abdulla Oripov misralari bilan boshlanib, shu shoir misralari bilan yakun topardi. O'ziyam "Onajon", "Ayol", "O'zbekiston — Vatanim manim", "Maktub", "Birinchi muhabbatim", "Mitti yulduz"... ay-y-y, sanayversam, adog'i ko'rinmasdi, biri-biridan quyma bu ash'orlarning. Doimo yonimdan qo'yamaydiganim — sho'riming biz talaba bo'lgan yili nashr etilgan qora yumshoq jildli "Hayrat" nomli mo'jaz kitobi qo'lma-qo'l o'taverganidan titilib ketgandi. Bir olam ma'nolar maxzani edi bu she'rlar...

Oshna! Kiyevning "Dinamo"si Myunxenning "Bavariya"si bilan Ovrupa superkubogi uchun final o'yini o'tkazganida, yarim tun futbol ko'ramiz deb men, sen va Muzaffar — uchalamiz sakkiz chaqirim yo'lni poyi piyoda bosib, xo'jalik markaziga borganimizda, qaysi xonadonga yaqinlashmaylik, sohiblari bizni "o'g'ri" chamalab(ehtimol, bemahal kelgan mehmondan qochib), qoziqdagi itni bo'shatganicha olkishlaganlarini, qorong'i tun, yo'lning o'nqir-cho'nqirini ham pisand etmay, otilgan o'q misol qochganlarimizni eslaysanmi? Besh-it dona tuxum ilinjida tovuq fermasi tozalaganimizni-chi? Eh-h, sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi shirin va achchiq bu xotiralarning...

Qish qilichini qayrab, g'ozapoyada yilt etgan oqlik ko'zga tashlanmas-da, paxta yig'im-terimining adog'i ko'rinay demasdi. Bir yili qalin qor yog'ib, g'ozalar egilib qolganida ham dalani tark etmagandik. Erta bilan qalin kiyinib, bir nafas dalaga chiqqan domlalar ko'zi uchun ikki kishi uzun arqonning ikki tomonidan ushlab, egat bo'yab ketar, qolganlarimiz arqon tegib qori to'kilgan g'ozalarni paypaslab, duch kelgan oqliqni etagimizga solib boraverardik. Aslida, bularning hammasi qahri qattiq domlalar ko'zini shamg'alat etish uchun qilinadigan harakatlar edi.

Ular esa dala chetida qo'llariga kuhlaganicha yarim soatga turishar, keyin bizning egatlarga sochilib ketganimizga ishonch hosil qilgach, iliqqina (albatta, biz yotadigan keng zallar emas, o'qituvchilarning pechka o'rnatilgan xonasi) dala shiyponiga qaytishardi. Biz ham ustozlardan qolishmasdik. Nazorat ariganidan ariq va zovurlarning dala shiyponiga ko'rinmaydigan tomoniga o'tib, gulxan yoqar, Haydar aka o'qituvchilardan yashirincha etagimizga solib qo'rgan kartoshkalarni cho'g'ga ko'mib, "shohona" dasturxon tuzardik.

Ehtimol, ushbu satrlarni o'qib, sen ham shirin va achchiq xotiralarni kovlashtirayotgandirsan. Esla, jo'ra, esla! Bugun sen yashayotgan manzil qo'shni mamlakat hududida. "Oltin davr"imiz o'tgan maskanlarni qalbimiz tusasa, bizga oson — g'ir etib boramiz, kelaveramiz. Sening esa qator mahkamalarning eshigini chertishingga, ming turli to'ralar chig'irigidan o'tishingga to'g'ri keladi. Shunday ekan, yuragingni to'ldirgan sog'inch hissini xotiralar epkini bilan bostir. Men har doim seni ko'rgim kelganida, shu yo'l bilan o'zimni ovutaman.

2.

Do'stim! Kecha yarim tun odatdagidek qog'ozlarga ko'milib o'tirganimda, qo'l telefonim jiringladi. Hayron qoldim. Hatto it-mushukning oyog'i yig'ilgan palla mendek bedor kimsa kim bo'ldi ekan? Yo'qinqiramay javob qaytardim:

— Eshitaman.

— Nabi, bu senmisan?

Dovush sohibini da'fatanimadim, ammo uning o'zimga juda yaqin kishi ekanini sensirab qilgan murojaatidan angladim.

— Ha, menman, kechirasiz, sizni tanimayroq turibman.

— Nahot tanimagan bo'lsang, men birinchi guruhboshilaringiz — Boboyorman.

Eslandingmi? O'sha, taqdir taqozosi bilan yigirma yetti yoshida talaba bo'lgan, sinovlar mavsumi boshlanganida, kitob titishdan ortib, har birimizning yaxshi baholar olishimiz uchun yelib-yuguradigan o'zimizning Boboyor aka (aytgancha, o'ttiz yil bir jamoada ishlab, shuning yigirma ikki yilida maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari bo'lib ishlagan akamiz qarilik nafaqasiga chiqqaniga ham o'n yil to'lay deb qoldi)!

— Tanidim, aka Boboyor, taniganda qandoq, sog'lig'ingiz qalay, ishingiz zo'rmi, nevara-chevaralar chopqillab yurishibdimi?

— Zo'r, hammasi zo'r, faqat meni keyingi paytlarda sog'inch qiyayapti.

— Sog'inch, qanday sog'inch? — so'radim tushunqiramay.

— Yosh bir joyga borib qoldi, uka, qani edi hammamiz yana bir bor dasturxon atrofiga biriksak, keyin armonim qolmasdi.

So'z urish ohangidan angladim, Boboyor akaning dovushida o'kinch hissi hukmronlik qilar, go'yo menga ilinsa, hamma istaklarini bir zumda muhayyo etishga qodir kuchga egadek edim. Bildim, Boboyor aka "guruhdoshlar uchrashuvi" tashkil etishimini istayotgandi. Ammo bunday uchrashuv tashkil etishning o'zi bo'ladimi?! Qaysidir yili Qarshining "eski bozor"ida qishlog'ida yetishtirilgan quruq mevalar bozorini avj oldirayotgan Abdusalom (hozir u katta odam, mahalla fuqarolar yig'ini raisi) ikkimiz barcha saboqdoshlar boshini biriktirishga urinib ko'rdik. Biz tayinlagan manzilga (to'g'ri, senga xabar yetkazishning yo'lini topmagandik) aytilgan muddat xizmat vazifasi va ro'zg'or tashvishidan ortib yigirma to'rt nafar kursdoshdan atigi yetti nafari keldi. Haliyam guruhimiz malikalariga rahmat, ular bor-yo'g'i sakkiz kishi edi. Shuning ham to'rt nafari vaqt topib davramizni to'ldirdi. To'g'ri, o'tgan yilgi uchrashuvimiz anchagina serfayz bo'ldi. Bu gal davraga kelganlar soni yigirmadan (bilsang, oramizda chin dunyoga ketganlar ham to'rt nafarga yetibdi) oshdi. Ancha surishtirishlardan so'ng yashash manzillarini aniqlaganimiz — Mag'firat bilan Tuha opa, hatto tahsilning oxirgi bosqichida farzand ko'rib, o'qishini sirtiga ko'chirgan Saltanat ham yetib keldi. Yo'l olis bo'lgani bois Abdusamad bilan Husan akaga xabar yetkazolmagandik. Faqat Xolmahmad bilan Ismoilning Chiroqchidan, Bibisora-yo'li topolmagani dilimizni biroz ranjiti. Darvoqe, boshqalarga qaraganda senga ancha yaqin bo'lgan Bahrom bilan muloqot qilayotgan bo'lsang, undan so'ra, Mamatqulning tashabbusi tufayli uchrashuv tasviriga olingan diskdan bir dona yuborsin senga.

Shu satrlarni qog'ozga tushiryapman-u, beixtiyor xayolga tolaman. Ehtimol, shu dam sen ham barmoqlaringni bukib, yil sanashga tushgandirsan. Oliy o'quv yurtining diqqinapas saboqxonalarini tark etganimizga o'ttiz yetti yildan oshibdi. Shuncha yildirki men xotiralar og'ushida yashayapman. Ayrim voqealarni unutay desam, hushimda ham, tushimda ham tinimsiz ta'qib etaveradi. Esingdami talaba bo'lgan yilimiz. O'quv yili boshlandi-yu, ertasigayoq muassasa hovlisi biz

hasharchilarni paxta terimiga olib ketishga kelgan avtobuslar bilan to'ldi.

Ko'ksini urushda olgan orden-medallari to'ldirgan keksa rus tarixchisi keng maydonda to'plangan biz — har birining orzulari olamga tatiydigan yigit-qizlar oldiga chiqib, paxta yig'im-terimida ishtirok etish, vatan boyligi sanalmish paxtani so'nggi tolasigacha terib olish keksa-yu yoshning burchi ekani to'g'risida nutq irod qildi. Keyin har kulliyotdan bir nafar talaba so'z olib, paxta yig'im-terimida tashabbus ko'rsatish vijdon amri bo'lishi haqida balandparvoz jumalalar aytdi.

Shu-shu, uch-to'rt oy cho'l tumanining Salvador Alenda (olis Lotin Amerikasidagi mamlakatlardan biri sobiq rahbarning bizga nima aloqasi bor edi, bilmadim) nomidagi 5-davlat xo'jaligi dalalariga tanda quradigan bo'ldik.

Ayniqsa, birinchi kurs paxta yig'im-terimi qanchalik og'ir kechganini unutmayman. Sen ham, men ham paxtani ilk bor ko'rgan saho odamlari edik. Bizdan qo'yni, echkini so'rashganida boshqa gap edi. Shu bois ko'p terishga qanchalik urinmaylik, negadir ishimizda unum bo'lmasdi. Bir gal guruhimiz ilg'orlaridan qamashilik Muzaffar qiynalayotganimni ko'rib:

— Men bilan yonma-yon egatga tushasan, men o'tirganda — o'tirasan, paxta terganimda — terasan, etak bo'shatganimda — bo'shatasan, — dedi.

Aytganlarini quloq qoqmay bajardim. Tergan paxtamning cho'g'i har kungidan ko'pdek tuyuldi, nazarimda. Lekin o'lchovda aytarli o'zgarish sezilmadi. Muzaffarning tergani sakkon kilogramm, meniki esa arang o'ttiz ikki kilo chiqdi. Hayratga tushdim. Etak bir xil kattalikda. Egatda farq yo'q. Paxtani terib o'tgan masofamiz teng bo'lsa, nega ikkalamizning natijamiz ikki xil chiqadi? Tag'in Muzaffarning o'zi masalani oydinlashtirdi:

— Sen o'ng qo'lingni belga tirab, yakka qo'lda terarkansan, bunaqada ishda unum bo'lmaydi.

Qiziq, bel zirqirab og'risa, qo'lni qayerga tirash kerak? Hatto chuvakkina Qurbon, noziknihol ikki Ra'no-yu Fazilat va Uytula ham terimni do'ndirar, ammo sen bilan menga "zarbdor" bo'lish sira nasib etmasdi. Kun bo'yi sillamiz qurib paxta terganimiz kamdek, kechqurunlari domlarning mo'jaz xonasida bo'ladigan "shtab" yig'ilishini aytmaysanmi?! Yuqori kursda o'qiydigan "tabelchi" eng kam paxta tergan saboqdoshlarini birin-sirin "shtab"ga chaqirib ketar, albatta, bu ro'yxatning boshida sen va men bo'lardik. Ba'zan esa qoloqligimiz uchun jazo sifatida fonus yorug'ida qonxo'r pashshalarga talanib, egat oralashga majbur etilardik. To'g'ri, biz kabi qoloqlar kam emasdi, ammo ayrim guruhdoshlarimiz paxta terishni eplamasada, brigada boshlig'ining tilini topib, nomiga paxta yozdirishni do'ndirardi.

Dehqonobodlik Mamatqul bilan bog'liq sarguzasht esingdami?

Bir kuni tun yarmida shiyponimiz yaqinida tarillab kelayotgan traktorning girsillab ag'naganini eshitib, yugurib chiqqanimizda, yo yorug'ida zaxkash bo'yab qochib ketayotgan traktorchini ko'rib qoldik. Ildamroq yuguradigan kimdir uni tutib keldi. Qarasak, traktorchi deganimiz qo'rtuvdan zir qaqshayotgan Mamatqul:

— Qarasam, janginamda traktir jonib turibdi, hech kim unga qaragani jo'q. Astagina rulga o'tirib, skorini tartandim, traktir uchib ketdi, gazini basgan sayin basgim kelaberdi. Keyin shu... — dedi u ko'zlarini lo'q qilib.

Abdunabi ABDIYEV,
Mirishkor tumanidagi
22-maktab direktori
(Davomi keyingi sonda.)

Besh tashabbus imkoniyatlari

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan besh muhim tashabbus ijrosini ta'minlash maqsadida Yakkasaroy tumanidagi umumta'lim maktablari qoshida kunduzgi oromgohlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

To'rt navbat davomida o'quvchilarni qamrab olishga mo'ljallangan oromgohlarda besh tashabbusning birinchisi — yoshlarning musiqa, rassomlik, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarishga ko'maklashish maqsadida yetarli shart-sharoit yaratildi. Bolalarning qo'shiqchilik, folklor, raqs va cholg'uchilik, rassomchilik yo'nalishidagi bilimlarini yanada boyitish uchun mutaxassis murabbiylar birlashtirildi.

Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoit yaratish ikkinchi tashabbusning bosh vazifasidir. Oromgohlarda turli yo'nalishdagi sport to'garaklari ishlab turibdi. O'quvchilar o'rtasida tez-tez qiziqarli bellashuvlar o'tkazilib, sportga qiziqishini yanada orttirishga erishilmoqda. Yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish uchun tashabbusning asosiy mazmun-mohiyatini belgilaydi. "Kompyuter o'yinlari", "Yosh dasturchi" to'garaklari a'zolari kompyuterdan to'g'ri va samarali foydalanish, dasturlar yaratish, veb-saytlarda ishlash borasidagi ko'nikmalarini shakllantirmoqda. Shuningdek, yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish borasida ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. "Mening sevimli kitobim" mavzusidagi g'azalxonlik kechasi, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar o'tkazilmoqda. Ko'p kitob o'qigan o'quvchilar rag'batlantirilmoqda. Beshinchi tashabbus bo'yicha qizlar o'rtasida "Chevar qizlar", "Pazanda qizlar" tanlovlari o'tkazilib, kelajakda asqotadigan kasb sirlari bilan tanishtirilmoqda.

Maktablar qoshida tashkil etilgan oromgohlarda besh tashabbus bo'yicha olib borilayotgan turli tadbirlar, to'garaklar yoshlarning iqtidor va iste'dodlarini namoyon etishi uchun imkoniyat eshiklarini ochmoqda.

Feruza MUNAVVAROVA,
Yakkasaroy tuman xalq ta'limi bo'limi
ma'naviy-axdoqiy tarbiya sho'basi rahbari

Yangi kasblar o'rgatiladi

Samarqand shahrida umumta'lim maktablaridagi o'quv-ishlab chiqarish majmualari faoliyatini takomillashtirishga bag'ishlangan respublika seminari bo'lib o'tdi.

Tadbirda ta'kidlanganidek, Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan so'rovnoma o'tkazilib, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan 26 ta yangi kasb tanlab olindi. Yangi o'quv yilidan boshlab maktablarda ushbu kasblar ham o'rgatiladi.

Xalq ta'limi vazirligining Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi boshqarmasi mutaxassislari tanlab olingan kasblarning o'quv dasturlari, o'quv-metodik majmualari hamda sarflanadigan xomashyo me'yorlarini ishlab chiqish masalalari, kelgusidagi vazifalar xususida so'z yuritdi.

Xorazm viloyat xalq ta'limi boshqarmasi o'quv-ishlab chiqarish majmualari faoliyatini tashkil etish va metodik xizmat ko'rsatish bo'limi tomonidan yangi kasbiy yo'nalishlar bo'yicha 8 ta dastur loyihasi va 3 ta majmua loyihasi, 51 ta kasb bo'yicha "Mobil tele-

fonlarini ta'mirlovchi" va "Do'ppido'z" majmua loyihalari foydalanish uchun taqdim qilindi.

"Mobil telefonlarini ta'mirlovchi" kasbiy yo'nalishidan Urganch shahridagi o'quv-ishlab chiqarish majmuasi kasbiy ta'lim ustasi Shuhrat Palyazov, "Do'ppido'z" kasbiy yo'nalishidan Gurlan tumanidagi 5-o'quv-ishlab chiqarish majmuasi uslubchisi Nuriya Qo'chqorova, "Baliqchi" kasbiy yo'nalishi bo'yicha Xiva shahridagi o'quv-ishlab chiqarish majmuasining tajribali kasb ustasi Otaxon Otajonov ma'lumot berdi.

Zumrad MATQURBONOVA,
Xorazm viloyat xalq ta'limi boshqarmasi
O'quv-ishlab chiqarish majmualari faoliyatini
tashkil etish va metodik xizmat
ko'rsatish bo'limi boshlig'i

Ta'tilda hunar o'rganamiz!



Uchtepa tumanidagi 78-umumta'lim maktabida poytaxtimizda faoliyat yuritayotgan usta-hunarmandlar ishtirokida o'quvchilar uchun mahorat darslari tashkil etildi.

Ta'tilda o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularni kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida tashkil etilgan tadbir ko'plab o'g'il-qizlar uchun yangilik bo'ldi. O'g'il bolalar duradgorlik, kulollik, naqqoshlik, zargarlik, qizlar tikuvchilik, to'quvchilik, biser tikish, kashtachilik namunalari o'rin olgan ko'rgazmani tomosha qilib, ustalarning mahorat mashg'ulotlarida ishtirok etib, hunarlarni o'rganish ishtiyoqida hunarmandlarga shogird tushish istagini bildirdilar.

Tadbirda ishtirok etgan o'quvchilar yozgi ta'til davomida hunar o'rganishni maqsad qildilar.

Muslimaxon MAHKAMOVA,
O'zbekiston davlat konservatoriyasi talabasi

O'ZEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT MILLIY RAQS VA XOREOGRAFIYA OLIY MAKTABI 2019-2020-O'QUV YILI UCHUN BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARI BO'YICHA ABITURIYENTLAR QABUL QILADI

1. "Xoreografiya" (turlari bo'yicha): o'qish muddati — 4 yil

- "Kasbiy ta'lim" ("Xoreografiya pedagogikasi") ta'lim yo'nalishi;
- "Xoreografiya jamoalari rahbari" ta'lim yo'nalishi.

2. "Sirtqi bo'lim" (xoreografiya turlari bo'yicha): o'qish muddati — 5 yil

3. "San'atshunoslik" (xoreografiya sohasida): o'qish muddati — 4 yil

Abituriyentlardan quyidagi hujjatlar qabul qilinadi:

- pasport asl nusxasi;
- o'rta yoki o'rta maxsus ma'lumoti to'g'risidagi hujjatning asl nusxasi.

HUJJATLAR 15-IYUNDAN 15-IYULGACHA QABUL QILINADI.

4. Magistratura mutaxassisliklari bo'yicha:

- Xoreografiya san'ati va xoreografiya.
- San'at nazariyasi va tarixi (xoreografiya).

O'qish muddati — 2 yil

HUJJATLAR 1-IYULDAN 30-IYULGACHA QABUL QILINADI.

Magistratura uchun quyidagi hujjatlar qabul qilinadi:

- rektor nomiga ariza;
- pasport asl nusxasi;
- diplomning asl nusxasi;
- 3.5x4.5 hajmdagi 8 dona fotosurat.



Telefon: 71-256-24-36 (faks), 71-252-22-29. www.mrxom.uz
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib-31.
Metroning "Kosmonavtlar" bekati, 140-avtobus va 67-marshrut
taksining "Xoreografiya oliy maktabi" bekati.

QABUL KOMISSIYASI

Ta'til maroqli o'tishi uchun...

Bekobod shahridagi "Barkamol avlod" bolalar markazida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus bo'yicha tashkil etilgan to'garaklarda o'quvchilarning yozgi ta'tilni mazmunli o'tkazishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

— Shu kunlarda markazdagi 34 ta to'garakda 743 nafar o'quvchi o'z qiziqishi bo'yicha bilimlarini oshirmoqda, — deydi markaz direktori Omina Rahmonberdiyeva. — Rassomlik, raqs, kompyuter, qo'g'irchoq teatri, texnika va sport yo'nalishlari bo'yicha to'garaklarga bolalar faol qatnashmoqda.

Jumladan, "Yosh texniklar" to'garagiga 20 nafar bola jalb qilingan. Yaqinda besh tashabbus doirasida o'tkazilgan

"Youth techho art" bolalar texnik ijodkorligi tanlovida to'garak a'zosi Xudoyberdi Jo'rayev "Robototexnika" yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni olib, respublika bosqichiga chiqdi.

Yosh mutaxassis Doniyor Usmonov rahbarligidagi rassomlik to'garagiga 20 nafar bola qamrab olingan. Ularning tasviriy san'atga qiziqishini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlardan otanalar ham mamnun. Munajat



Abdullayeva rahbarligidagi "Qo'g'irchoq teatri" to'garagi 42 nafar o'quvchining teatr san'atiga qiziqishini oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilishda markaz qoshidagi kutubxonaning xizmati katta bo'lmoqda.

— Kutubxonamiz 3 714 ta kitob fondiga ega bo'lib, o'quvchilar muntazam kitobxonlik kechalarini o'tkazib borishadi, — deydi kutubxona mudirasi Zamira Shodmatova. — Yaqinda "O'zmetkombinat" AJ korxonasi kutubxonamizga turli nomdagi 70 ta badiiy adabiyot sovg'a qildi.

Sultonboy DEHQONOV
olgan suratlari.



Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-3574. Tiraj 12017.
Hajmi 4 bosma taboq. O'fset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabuxona — (71) 233-50-55;
kotiyyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.

ISSN 2030-6436



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqdir
qilinmaydi va muas-
lifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Abror Umarqulov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorsanba va sharba kunlari chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonada manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 22.50 Topshirildi — 00.10

1 2 3 4 5 6